

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIYOT-GEOGRAFIYA FAKULTETI

5420100- “Biologiya” yo`nalishi talabasi

430-guruh talabasi Vahobov Diliyor Qambaraliyevichning

**“Farg’ona shahar Al-Farg’oniy nomli istirohat bog’ining
dendroflorasi” mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY
ISHI

Ilmiy rahbar: *b.f.n. dotsent*

R.Shonazarov

Farg`ona – 2013 yil

Bitiruv-malakaviy ishi Zoologiya kafedrasining 2013 yil 8 may kungi yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

b.f.n. M.Shermatov

Taqrizchilar:

1. V.Karimov, zoologiya kafedrası dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.
2. O'zbekiston Ekologik harakati Farg'ona viloyati bo'limi raisi M.Mahmudov

MUNDARIJA:

KIRISH	4
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	9
II BOB. AL-FARG'ONiy NOMLI ISTIROHAT BOG'INING DENDROFLORASI HAQIDA	11
2.1. Bog'da ro'yxatga olingan manzarali daraxt va butalarning hayot shakllariga ko'ra bo'g'da taqsimlanishi.	11
2.2. Bog'da ro'yxatga olingan o'simlik turlarining vatani haqida ma'lumotlar	19
2.3. Bog'da ro'yxatga olingan o'simliklarning hayotiy shakllari va tur, turkumlari bo'yicha oilalarga taqsimlanishi	20
III BOB. BOG'DA RO'YXATGA OLINGAN O'SIMLIKLARNING ANIQLAGICHI	22
3.1. Oilalar aniqlagichi	22
3.2. Turkum va turlar aniqlagichi	25
IV BOB. AL-FARG'ONiy BOG'IDA O'STIRILIB KELINAYOTGAN O'SIMLIK TURLARINING BIOEKOLOGIYASI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI	32
4.1. Bog'da ro'yxatga olingan o'simliklarning bioekologiyasi	32
4.2. Noyob va istiqbolli turlarni muhofaza qilish	62
XULOSA	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	67


KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov “tabiatga qo’pol va takabburlarcha munosabatga yo’l qo’yib bo’lmaydi” deb alohida uqdiradilar. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi, deb davom etadi. Prezidentimiz inson tabiatning xo’jayini, degan soxta sotsialistik mafkura natijasida unga juda katta talofat yetkazildi, insonlarning hayoti, ularning qirilib ketish va genofondining yo’qolib borishi xavf ostida qoldi. Vazirlar Mahkamasining Respublikamizda tinchlikni taminlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish borasida olib borilayotgan fidokorona ishlari xalqmizning tinch osonishta va madaniy hayot kechirishlari uchun to’la imkoniyat yaratib bermoqda. Madaniy hayotning muhim tomoni esa shahar, tuman va barcha aholi yashaydigan, ishlaydigan, hordiq chiqaradigan joylarni obodonlashtirish va ko’klamzorlashtirishdan iborat. Ma’lumki, obodonlashtirish va ko’klamzorlashtirishni bog’lar, gulzorlar, ko’cha va rang-barang fayz va manzara kiritib turadigan ko’rkam xushmanzara o’simliklarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa xalqmiz faravon hayot kechirayotgan hozirgi kunda “yashil do’stlar” insonlar hayotida birinchi o’rinda turadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov shu munosabat bilan ekologik xavfsizlikni ta’minlash va kuchaytirishning quyidagi asosiy yo’nalishlarini asoslab beradi. Birinchidan, tegishli texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish, ikkinchidan, qayta tiklanadigan zahiralarning qayta ishlab chiqarishning tabiiy kengayishini taminlash asosida tabiiy zahiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish. Uchinchidan, katta-katta hududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zahiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta’minlaydigan darajada aniq maqsadga yo’naltiriladigan, ilmiy asoslangan tarzda o’zgartirish muammosi. To’rtinchidan, jonli tabiatni boshlang’ich asos sifatida saqlab qolish uchun madaniy ekinlar, hayvonlarning yangi turlarini ko’paytirish. Beshinchidan, shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishda yashash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish. Oltinchidan, jahon jamoatchiligi e’tiborini mintaqa ekologik muammolariga jalb etish.



1-rasm. Ahmad al-Farg'oniy nomli oromgohning darvoza qismi



2-rasm. Ahmad al-Farg'oniy nomli oromgohning kosmosdan ko'rinishi

O'simlik deganda ko'z o'ngimizda o'zining ajoyib gullari va yashil barglari, shox shabballari bilan tabiatga fayz kiritib turgan, qalam ahliga ilhom, bemorlarga shifo, barchaga kuch-quvvat, izzat belgilaydigan rang barang gullar namoyon bo'ladi. Rang barang gullar kishi ko'nglidagi tashvishlardan forig' etadi. Binobarin gulning ko'rkam, go'zal ko'rinishlaridan, xushbo'y yoqimli, ufuradigan bahri-dili ochilmaydigan kishi bo'lmasa kerak. U hayot ko'rki, fayzidir. Dastalangan yoki chaman bo'lib ochilib turgan gul qaysi yurakni eritmaydi, qaysi dilni qitiqlamaydi, qaysi bir insonni mehnatga chorlamaydi deysiz. Gul hayotimizga shu qadar singib ketganki usiz marosimlarni, barcha tantanali va shodiyoha kunlarni tasavvur qilish qiyin. U yoshlarga muhabbat, keksalarga hurmat ramzi sifatida ham xizmat qiladi. O'simliklarni bu ajoyib hislatlarini anglab yetgan qadimgi ajdodlarimiz ham o'zlari yashab turgan joylarga o'simliklar ekishgan.

Mavzuning o'rganilganligi. Manbalarda ko'rsatilishicha, O'rta Osiyo xalqlari 2-2,5 ming yil muqaddam tola beruvchi, donli va moy beruvchi o'simliklarni yetishtirish bilan bir qatorda manzarali bog'dorchilik bilan ham shug'ullanganlar, bog'larga manzarali daraxt va buta ko'chatlarini o'tqazganlar gulzorlar barpo qilishgan.

Ma'lum bo'lishicha, eramizdan oldingi 4-asrda Marg'ilon va So'g'diyona yerlarida ko'plab bog' va xiyobonlar bo'lib, ularda manzarali daraxt butalar chiroyli ajoyib gullar hamda boshqa o'simliklar parvarish qilishgan. O'sha davrlardan boshlab boshqa mamlakatlardan xushmanzarali o'simliklarni keltirib o'stira boshlaganlar. Bog'lar barpo qilish, ko'chalarni xushmanzara o'simliklar hisobiga boyitish hozir ham davom etmoqda.

Ma'lumki bog' va ko'chalardagi manzarali va mevali o'simliklar yuqorida aytilgan xislatlaridan tashqari havoni kislorodga boyitadi, uni chang va turli zararli gazlardan tozalaydi, soya va salqinlik ato etadi, shamol tezligini pasaytiradi, ular tomonidan ajratilgan turli uchuvchi moddalar zararli mikroblarni o'ldiradi efir moylari esa havoni xushbo'y bo'lishini ta'minlaydi, yozda havo haroratini 5-10⁰C ga pasaytiradi.

O'simlik mahsulotlari sanoatning kimyoviy, mebel, qog'oz, parfyumeriya qurilish tarmoqlarining asosiy xom-ashyo manbayi sifatida xizmat qilib kelayotgani ham hech kimga sir bo'lmasa kerak.

Umuman hozirgi paytda inson hayotini hordiq chiqarishini, o'z atrofida bog' va ko'chalarda o'sayotgan xilma-xil o'simlik turlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ushbu tadqiqotdan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, Al Farg'oniy nomli istirohat bog'idagi daraxt va butalarning soni, tur tarkibi, sistematikasi, ularning noyoblik darajasi va bugungi kunda shahar aholi uchun qay darajada foydali ekanligini aniqlashdan va ushbu ishlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganishdan iborat. Bunda quyidagi ishlarni o'z oldimizga vazifa qilib oldik:

- Ishtirohat bog'ining maydonini aniqlash va u yerda o'sadigan daraxt va butalarning umumiy sonini hisoblab chiqish;
- Istirohat bog'ida o'suvchi daraxt va butalarning hayotiy shakl jihatdan va sistematik jihatdan tasniflash;
- Istirohat bog'ida o'suvchi daraxt va butalarning foydali xususiyatlarini va ularning noyoblik darajasini aniqlash;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi istirohat bog'ida o'suvchi daraxt va butalarning

- Sonini;
- Tur tarkibini
- Foydali xususiyatlarini
- Noyoblik darajasini aniqladi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv-malakaviy ishi natijalari Farg'ona shaharida o'sadigan daraxt va butalar haqidagi ma'lumotlarni yana boyitadi.

Ayrim daraxtlarning biologiyasini, ularning Farg'ona shahrida moslanish belgilari, barg yozishi, gullashi, meva tugishi va boshqa hayotiy jarayonlari

o'rganildi va shu asosida Al Farg'oniy nomli istirohat bog'i dendroflorasiga oid ma'lumotlar yangi ma'lumotlar bilan boyidi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, daraxt va butalarning muhitdagi o'zgaruvchan sharoitlarga sutkalik va mavsumiy moslanishlari izohlash, shuningdek, mikrofloraning ozuqa zanjirining shakllanishidagi ahamiyatini talqin etish uchun nazariy asos bo'la oladi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish, 4 bob, xulosa, 14 ta rasm, 3 ta jadval va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (42 nomda, shulardan 7 ta Internet saytlari)dan iborat bo'lib, umumiy hajmi 68 sahifani tashkil etadi.

I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI

Manzarali daraxt va butalarning yuqorida sanab o'tilgan xislatlarini hisobga olib shahrimizning istirohat bog'ida o'stirilayotgan daraxt va butalarning tur tarkibi, foydali xislatlari, ularning o'sishi, rivojlanish davrlarini kuzatish, shular asosida aniqlagich yaratish va istiqbolli, manzarali o'simliklar bilan yanada boyitish bo'yicha tavsiyalar berishni maqsad qilib qo'dik va shu asosida ish boshlab 2010-2012 yillar mobaynida materiallar to'pladik. To'plangan materiallarni qayta ishlab tartibga solindi, o'zimiz yaratgan aniqlagich yordamida oila, turkum, turlar aniqlagichi sistemaga solindi va reja asosida bayon qilindi.

Ma'lumki mavzu bo'yicha biron bir qo'llanma yaratilganicha yo'q. Nafaqat Farg'ona shahridagi istirohat bog'ida o'stirilayotgan manzarali daraxt va butalarga bag'ishlangan balki vodiyning Andijon, Namangan, Marg'ilon, Qo'qon kabi shaharlaridagi istirohat bog'larida ekib o'stirib kelinayotgan manzarali daraxt va butalarga biron bir asar yaratilgani yo'q. Bunday qo'llanmaga esa ehtiyoj katta. Chunki talabalar, maktab o'qituvchilari shahar bog'lari va ko'chalarida ekib o'stirib kelinayotgan manzarali o'simliklarni o'rganishda qo'llanmaning yo'qligi natijasida o'simlik nomlarini, qolaversa ularning bioekologiyasi o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Manzarali o'simliklarni o'rganish borasidagi qiyinchiliklarni, qo'llanmaga talab va ehtiyojni kattaligini hisobga olib ushbu qo'llanmani yaratishga xarakat qildik.

Hozirgi Al-Farg'oniy nomli istirohat bog'ini tashkil qilinishi, shaharni tashkillanish davriga to'g'ri keladi. Shaharni qurish rejasi tuzilganda bog'ni barpo qilish ham hisobga olingan. Shuning uchun bog'ni tashkillanishi shaharni qurilishi bilan bir vaqtda boshlangan deyish mumkin. Shaharni qurilishi 1876-yil boshlangan bo'lsa, istirohat bog'iga 1878-yil asos solingan. Shaharga asos solgan general gubernator Skobelev uning arxitekturasini bilan birga shaharni ko'kalamzorlashtirish bog'lar va xiyobonlar tashkil qilish ishlariga alohida e'tibor bergan. U o'z atrofiga mutaxassislar to'plagan, shaharni ko'rkam xushmanzarali,

yashil va rang barang libosga burkangan xolda bo'lishini orzu qilgan va uni ro'yobga chiqarish uchun xar qancha mablag' zarur bo'lsa ayamagan. U shaharni ko'kalamzorlashtirishda mahalliy o'simliklardangina foydalanib qolmay, chet ellardan ham gullar, manzarali daraxt va butalarning urg'larini, ko'chatlarini olib keltirib ektirgan. Bog'da xar bir o'simlik turi alohida, alohida o'tqazilib parvarish qilingan.

Bog'da hovuz va kichik fontan xam bo'lgan, lekin hozirgi kunda kichik fontan saqlanib qolgan xolos. General Skobelov vafotidan keyin gubernator etib Abramov tayinlangan. U Skobelov ishlarini davom ettiradi. Bog'ni esa o'ziga xususiy qilib, aylanasini o'ratadi. Gubernator bog'iga yana ko'plab daraxt va buta ko'chatlari, urug'lari olib kelinib o'stiriladi. Ko'chatlar orasida: Magnoliya, Qora Qarag'ay, Lola daraxti, Emanni uch turi, Qora yong'oq, Grek yong'og'i, Lipani 2 turi, Pavloniya, Gran, Qarag'ay, Botqoq kiparisi, Virgin archasi, butalardan: Farzitsiya, Qoraqand, Do'lana, Gibiskus, Tobulg'i, Tog' murchi, Shamshod kabi ko'rkam o'simliklar bo'lgan.

1909-yillarda to'liq shakllangan bolalar bog'ida esa: chinor, qayin, shumtol, pavloniya, gran, qog'oz daraxti, eman, qayrag'och, virgin archasi, kavkaz xurmasi, arg'uvon, nastarin kabi ko'plab manzarali daraxt va butalar ekilgan. Har ikki bog'da va ko'chalarda har bir o'simlik turi alohida alohida ekilgan.

II BOB. AL-FARG'ONiy NOMLI ISTIROHAT BOG'INING DENDROFLORASI HAQIDA

2.1. Bog'da ro'yxatga olingan manzarali daraxt va butalarning hayot shakllariga ko'ra bo'g'da taqsimlanishi.

1877-yili shaharga asos solingan bo'lsa, 1909-yilda I.Vasilyenko tomonidan o'tkazilgan kuzatishlar bo'yicha shaharning bog', ko'cha va hiyobonlarida 240000 ga yaqin manzarali daraxt va butalar o'sayotgani, ular 100 ga yaqin turni tashkil etishi haqida aytilgan.

O'sha davrda chet eldan keltirilgan manzarali o'simliklarning ko'chatlari va urug'lari bilan birga mahalliy sharoitda tarqalgan manzarali o'simliklardan ham foydalanilgan. Jumladan: terak, tol, tut, qayrag'och turlaridan ham shaharni ko'kalamzorlashtirishda foydalanilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki fuqarolar urushi davrida qanchadan qancha mablag'u mehnatlar evaziga bunyod etilgan bog'lar va hiyobonlarning ko'p qismi poymol bo'lgan, ularning ayrimlarigina asrlar osha hozirga qadar saqlanib qolgan.

Keyingi yillari shahardagi bog'u xiyobonlar va u yerlarda qadimda o'sgan manzarali daraxt va butalar qayta tiklandi. Istirohat bog' to'liq shakillandi, lekin u yerga faqat yevropaliklar kirishi va dam olib hordiq chiqarishi mumkin edi. Sunday qilib istirohat bog'idan mahalliy aholi foydalana olmas edi

1924-yildan boshlab shahar kengashining qarori bilan hususiy bog' shaharning madaniy-istirohat bog'iga aylantirildi. Shundan so'ng har ikki bog' shaharning dam olib, hordiq chiqaradigan maskaniga aylandi. Lekin keyingi yillarda bog'ni manzarali o'simliklar bilan boyitish, gulzorlar tashkil etish borasida sezilarli siljishlar bo'lmayapti. Bog'dagi issiqxona, nilufar o'stirilib kelinayotgan hovuz yo'qolib ketdi. Noyob o'simliklardan magnoliya, lola daraxti, kanada teragi, buk, grap, pavloniya, qizil lipa, marjon daraxti kabi manzarali o'simliklar yo'qolib ketdi. Ularni saqlab qolish va ko'paytirish borasida hech qanday chora-tadbirlar ko'rilmadi.



3-rasm. Bog'dagi daraxtlarning yuqoridan ko'rinishi

Mustaqilligimiz sharofati bilan 1991-yil xalq talabi bilan istirohat bog'iga IX asrning buyuk olimi Al-Farg'oniy nomi berildi va shahar kengashi qarori bilan mustahkamlandi.

Keyingi yillar davomida shaharni gullar shahriga aylantirish, bog'ni esa sayillar o'tkaziladigan haqiqiy dam olish maskaniga aylantirish, turli manzarali o'simliklar bilan boyitish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi va bu jarayon hozirda ham davom ettirilmoqda.

Ma'lumki, xalqimizning ajoyib va rang-barang gullarga, go'zal, xushbo'y manzarali, foydali ko'rkam o'simliklarga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Malumki, xar bir jon boshiga xalqaro standart bo'yicha 25m^3 yashil maydon to'g'ri kelishi lozim. Lekin bizda bu talab darajasidan ancha past. Shularni hisobga olgan holda keyingi yillari shahrimizni bog'u bo'stonlarga aylantirish, yashil maydonlar ko'rsatkichini meyoriga yetkazish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xar yili kuz va bahor oylari ko'chat ekish oyi tashkil qilinib, bu ajoyib ishni amalgam oshirishda butun xalqimiz bir tanu bir jon bo'lib uyushgan holda o'tkazmoqdalar. Ayniqsa mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ko'chat ekish oyi shu qadar ommaviy tus oldiki, u xalq sayili, bayramiga aylanib ketdi. O'zbekiston aholisining jon boshiga 20 tupdan ko'chat ekamiz degan ishlari ortig'i bilan bajarildi. Obodonlashtirish ishlari shu tartibda olib borilsa, O'zbekiston xududi so'zsiz bog'u-bo'stonga aylanadi va bunga albatda ishonchimiz komil.

Gulzorlar barpo qilish, ko'rkam gulli o'simlik turlarini ko'paytirish, yam-yashil va rang barang go'zal qiyofaga kiritish bog' hodimlari, ko'proq shahar ko'kalamzorlashtirish xo'jaligi faoliyatiga bog'liqdir. Lekin gulchilikni rivojlantirish, xilma-xil ko'chatlar yetishtirish, bog'lar barpo qilish ezgulikdir. Bu ish butun jamoatchilikning vazifasidir. Bu oliy janob ishda hamma birdek faol ishtirok etgandagina shahrimiz gullarga burkanaveradi, yam-yashil bo'stonga aylangan shahar, atrof-muhit doimo musaffo va odamlari sog'lom bo'ladi.

Al-Farg'oniy nomli istirohat bog'i dastlabki tashkil qilingan davrlarda 8,5 gektar maydonni ishg'ol qilgan bo'lsa, keyinchalik uning maydoni turli sabablarga

ko'ra (xar-xil maqsadlarda qurilgan inshootlar hisobiga) qisqarib brogan. Hozirda esa u kengayib 27 gektarni tashkil qiladi.

Bog' 6 bo'limdan tashkil topgan bo'lsada, uning asosiy qismini bolalar va kattalarni dam olishlari uchun ajratilgan maydonlar tashkil qiladi. Bog'da choyxona, oshxona, nonvoyxona, marojnaxona, kattalar va bolalarning dam olishlari uchun ham xamma imkoniyatlar mavjud.

Malumki bog'ni ko'rkam va xushmanzarali bo'lishi ko'p jihatdan ko'kalamzorlashtirishni reja asosida tashkil qilinishiga bog'liq. Dastlab ko'chatlarni turiga qarab reja bilan malum maqsad sari joylashtirilgan bo'lsada, keyinchalik u biroz izdan chiqib ketgan. Lekin ko'pchilik maydonlar dastlabki xolida saqlangan.

O'tkazilgan kuzatishlarga ko'ra bolalar va kattalar bog'idagi mavjud daraxt va butalar soni 4900 tadan ortiq bo'lib, ulardan 2900tasi daraxtlar, 2000tasi esa butalardir.

Kattalar bog'idagi mavjud 3800 daraxt va butalardan 2200 tasi daraxtlar va 1600 tasi butalar ekanligi aniqlandi.

Bolalar bog'i nomi bilan yuritilib kelinayotgan bog' 3,5 gektardan ortiqroq bo'lib, u yerdagi daraxt va butalar soni 1100 ta atrofida bo'lib shundan 700 turi daraxt, 400 turi butalardan iborat ekanligi aniqlandi.

Har ikki bog'dagi 4900 tup daraxt va butalar 31 oila, 51 turkum va 60 turdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi.

**Bog'da ro'yxatga olingan manzarali o'simliklar haqida umumiy
ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirib o'tilgan**

Jadval №1

Umumiy maydoni gektar hisobida	Kattalar bog'I gektar Hisobida	Bolalar bog'I gektar hisobida	Manzarali daraxt va butalarning umumiy	Katta bog'da			Bolalar bog'ida		
				Daraxt va butalar soni	Daraxtlar soni	Butalar soni	Daraxt va butalarning umumiy soni	Daraxtlar soni	Butalar soni
27 ga	23,5ga	3,5 ga	4900	3800	2200	1600	1100	700	400

Jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ldiki, mustaqillik yillari bog'ning maydoni 3,5 barobarga kengaygan, natijada bog' xududida 4ta fantan, qator gulzorlar barpo qilingan. Manzarali daraxt va butalar soni ham oldingiga nisbatan ikki barobarga ortgan. Ularning asosiy qismini doimiy yashil o'simliklar (qoraqarag'ay, oddiy qarag'ay, archa, biota, shamshod, evanimus va boshqalar) umriboqiy noyob o'simliklar (eman, kashtan, katalpa, lipa, chilonjiyda, chinor, ipak akatsiya va boshqalar) tashkil qiladi.

Bog'da o'stirilayotgan manzarali o'simliklar ro'yxati

1. Qizilchadoshlar *Ephedraceae* – qizilcha – *Ephedra equisetino*
2. Ginkodoshlar oilasi – *Ginkgogoaceae*
3. Ginkgo biloba – *Ginkgo biloba* L
4. Qaragaydoshlar oilasi – *Pinaceae*
5. Qrim qarag'ayi – *Pinus pallasiana* Lamb
6. Oddiy qarag'ay – *Piceae excelsa* Link
7. Archadoshlar oilasi – *Cupresaceae*
8. Sharq sauri – *Biota orientalis* Endl

9. Virgin archasi – *Juniperus Virginiana* L

Toldoshlar oilasi - *Salicaceae*

10. Oq tol – *Salix alba* L

11. Majnun tol – *S. babylonica* L

12. Oq terak – *Populus alba* L

13. Mirza terak – *Populus nigra* L

14. Ko'k terak – *Populus bachofeni* Wierzb

15. Balsam terak – *Populus balsamifera* L

Yong'oqdoshlar oilasi – *Juglandaceae*

16. Grek yong'og'i – *Juglans regia* L

17. Qora yong'oq – *Juglans nigra* L

Qayindoshlar oilasi - *Betulaceae*

18. Oq qayin – *Betula pendula* Ruth

19. Oddiy grab – *Carpinus betulus* L

20. Qizil eman – *Quercus robur* L

21. Pukak qayrag'och – *Ulmus pumila* L

22. Sada qayrag'och – *U. densa* Lifw

Tutdoshlar oilasi - *Moraceae*

23. Sariq maklyura – *Maclura aurantica* Nitt

24. Oq tut – *Morus alba* L

25. Shox tut – *Morus nigra* L

26. Yapon tuti – *Multicanlis* Peer

27. Qog'oz daraxti – *Braussonetia Parpurifera* (L) Vent

Chinordoshlar oilasi - *Platanaceae*

28. Sharq chinori – *Platanus orientalis* L

Ranoguldoshlar oilasi – *Rosaceae*

29. Xitoy atirguli – *Rosa chiensis* Jacq

Dukakdoshlar oilasi – *Fabaceae*

30. Ipak akatsiya – *Albizia julibrissin* Durruzz

31. Oddiy qo'zoq mevali arg'uvon – *Cercis siliquastrum* L

32. Yapon tuxmagi – *Styphinolobinum (sophora) japonica* L

33.



4-rasm. Daraxt ko'rinishida o'sgan butasimon yulg'un

34. Soxta akatsiya – *Robinia Pseudoacacia* L
35. Tikon daraxti – *Gleditschia triancanthus* L
Yulg'undoshlar – *Tamaricaceae Tamarix hispida*
36. Simorubdoshlar – *Simorubiceae*
37. Boygan aylant – *Ailanthus Altissima* Swingle
Normushkdoshlar – Bereckletdoshlar – *Celastraceae* oilasi
38. Yapon normushki – *Evonimus japonica* L
Shamshoddoshlar oilasi – *Buxaceae*
39. Doimiy yashil shamshod – *Buxus sempervirens* L
Zarangdoshlar oilasi – *Aceraceae*
40. Chinorbarg zarang – *Acer platanoides* L
41. Dala zarangi – *Acer campestre* L
42. Tatar zarangi – *Acer tatricum* L
43. Amerika zarangi – *Acer negundo* L
Soxta kashtandoshlar oilasi – *Hippocastoniaceae*
44. Soxta kashtan – *Aesculus hippocastonum* L
Chilonjiydoshlar oilasi – *Rhamnaceae*
45. Unobi-chilonjiyda – *Zizyphus jujiba* Mile
Jukadoshlar – *Tiliaceae* oilasi
46. Yirik bargli juka – *Tilia platyphyllos* Scar
Gulhayridoshlar oilasi – *Malvaceae*
47. Suriya bo'ritarog'i – *Hibiscus syriacus* L
Zaytundoshlar oilasi – *Oleaceae*
48. Oddiy shumtol – *Fraxinus excelsior* L
49. Qora shumtol – *Fraxinus pensylvanica* M
50. Oddiy ligstrum – *Ligstrum vulgare* L
51. Osilgan farzitsiya – *Forsythia suspense* (Thunb) Vahl
52. Oddiy siren – *Syringa Vulgaris* L
53. Hind sireni – *Indica*

Bigoniyadoshlar – *Bignoniaceae* oilasi

54. Go'zal katalka – *Catalpa speciosa* Ward

55. Bignoniyasimon katalka – *Catalpa bignonioides* Ward

Shilvidoshlar oilasi - *Caprifoliaceae*

56. Marjon daraxti – *Sambucus Nigra* L

57. Tatar shilvisi – *Zanigera tatarica* L

Xurmodoshlar oilasi – *Ebenaceae*

58. Virgin xurmosi – *Diospyros Virginiana* L

59. Sharq xurmosi – *Diospyros Kaki* L

Tizimguldoshlar oilasi – *Verbenaceae*

60. Maryam daraxti – *Vitex agnus castus* L

2.2. Bog'da ro'yxatga olingan o'simlik turlarining vatani haqida ma'lumotlar.

Bog'da ro'yxatga olingan o'simlik gullari, doimiy yashilligi va tarqalishi haqidagi to'liq ma'lumotlarni quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz

Jadval №2

	Doimiy yashil	Ko'kgulli	Pushtigulli	Sarg'ishgulli	Binafshagulli	Qizilgulli	Ko'rimsizgulli	Maydagulli	Bog'da o'simliklarning vatani							
									Shimoliy Amerika	Xitoy, Yaponiya	Markaziy Osiyo	Kichik Osiyo	Kavkaz, Qirim	O'rta yer dengizi	Bolqon yarim oroli	Yevropa
6	7	3	7	1	2	26	8	12	10	10	8	5	8	3	4	

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 60 turdan 6 turi doimiy yashil istiqbolli manzarali o'simliklar, 20 turi gullarining ko'rkamligi uzoq gullab turishi bilan ajralib turadi, 26 turi ko'rimsiz gulli o'simliklar, 8 turi esa mayda gulli manzarali o'simliklardan tarkib topgan. Ularning kelib chiqishi, ya'ni vatanini aniqlash bo'yicha hisob kitob qilinganda, bog'da bog'da o'stirilayotgan manzarali o'simliklarning ko'pchiligining vatani Shimoliy Amerika(12), Xitoy Yaponiya(10), Markaziy Osiyo(10), O'rta yer dengizi(8) ekanligi ma'lum bo'ldi.

2.3. Bog'da ro'yxatga olingan o'simliklarning hayotiy shakllari va tur, turkumlari bo'yicha oilalarga taqsimlanishi.

Bog'da ro'yxatga olingan o'simliklarning oilalari, turkum va turlari, hayot shakllari haqidagi ma'lumotni quyidagi jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkun:

Jadval №3

№	Oilalar nomi	Turkum soni	Tur soni	Daraxt	Buta
1	Qizilchadoshlar-Erhedraceae	1	1	1	1
2	Gingkodoshlar-Ginkgoaseae	3	4	5	-
3	Qarag'aydoshlar-Pinaceae	2	2	1	1
4	Archadoshlar-Cupressaeae	2	2	2	-
5	Yong'oqdoshlar-Juglandaceae	1	2	2	-
6	Toldoshlar-Salieaceae	2	5	5	-
7	Qayindoshlar-Betulaceae	2	2	2	-
8	Qoraqayindoshlar-Fagaceae	1	1	1	-
9	Qayrag'ochdoshlar-Ulmaeeae	1	3	3	-
10	Tutdoshlar-mogaceae	3	5	5	-
11	Chinordoshlar-Platanaceae	1	1	1	-

12	Ranoguldoshlar-Rosaceae	1	2	-	2
13	Dukkakdoshlar-Fabaceae	5	5	5	-
14	Bereskletdoshlar-Celastraceae	1	1	-	1
15	Shamshoddoshlar-Buxaceae	1	1	1	-
16	Zarangdoshlar-Aceraceae	1	4	4	-
17	Soxtakashtandoshlar-Hippocostanaceae	1	1	1	-
18	Chilonjidadoshlar-Rhamnaceae	2	2	1	1
19	Jo'kadoshdoshlar-Flacaceae	1	1	1	1
20	Gulxayridoshlar-Malvaceae	1	1	-	1
21	Yulg'undoshlar-Tamaricaceae	1	1	-	1
22	Begnoniyadoshlar-Begoniaceae	1	2	2	-
23	Camarybdoshlar-Simarubiaceae	1	1	1	-
24	Shilvidoshlar-Capritoliaceae	2	2	1	1
25	Sapindadoshlar-Sapindaceae	1	1	1	-
26	Magnoliyadoshlar-Magnoliaceae	2	2	2	-
27	Lagoniyadoshlar-Lagoniaceae	1	1	-	1
28	Tizinguldoshlar-Verhenasceae	1	1	1	-
29	Pistadoshlar-Anagracem	1	1	1	-
30	Xyrmodoshlar-Ebenaceae	1	2	2	-
31	Zaytundoshlar-Oleaceae	3	3	2	-

Jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bog'da ekib o'stirilayotgan 43 turkum, 50 tur, 51 daraxt, 9 buta shaklidagi manzarali o'simliklarni oilalar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda eng ko'p turkum va turlar dukkaklilar (5 turkum, 5tur) tutdoshlar (3 turkum, 5tur) zaytundoshlar (2turkum 3tur), chilonjiydadoshlar(2turkum,2tur) shilvidoshlar(2 turkum,2 tur) Qolgan oilalarga esa faqat bir turkum, 1-2 tur kirishi aniqlandi. Hayot shakillari bo'yicha xam eng ko'p tur va turkum shu tartibda taqsimlangani hisoblash asosida ma'lum bo'ldi.

III BOB. BOG'DA RO'YXATGA OLINGAN O'SIMLIKLARNING ANIQLAGICHI

3.1.Oilalar aniqlagichi

1	Tugunchasiz urug'donsiz o'simlik. Urug'kurtaklari yalang'och. Barglari tangachasimon yoki reduksiyalangan. Daraxt yoki buta	2
-	Tugunchali urug'don o'simlik. Urug'chi barglari tuguncha hosil qiladi va urug'kurtakni o'rib oladi.	4
2	Barglari uzun, ninasimon, daraxt, urg'ochi qubbalari tuxumsimon. Qarag'aydoshlar – Pinaceae	
-	Belgilari boshqacha	3
3	Barglari reduksiyalangan, mayda, zich o'rnashgan yashil tangachalardan iborat. Qubbalari yashil, kulrang, yetilganda jigarrangda yoki qora rangda. Kattaligi 7-25 mm. 2. Archadoshlar – Cupressaceae. Yoki novdalari bo'g'imli, qubbasi etli. Qizilchadoshlar - Ephedraceae	
-	Barglari uzun bandli (10 sm), yaprog'i yirik yelpig'ichsimon, qubbasi bodom mevasi kattaligida Ginkgo – Ginkgoaceae	3
4	Barglari murakkab yoki oddiy	5
-	Barglari oddiy	13
5	Guli qiyshiq kosacha va tojbarglari 5 tadan	5
-	Gullari to'g'ri kosacha va tojbarglari ajragan	7
5	Gullari qo'shulg'org'onli, qo'sh jinsli, kosachasi ikki labli, tojbargi qo'ng'iroqsimon, keng nayli, ikki labli oq yoki och pushti, qora dog'lari bor, changchisi 4 ta, mevasi 20-35 (40) sm. Tsilindrsimon ko'sakcha Bignoniadoshlar – Bignoniaceae	5
-	Belgilari boshqacha	6
6	Barglari navbatlashib joylashgan, oddiy yoki murakkab, kosacha va tojbarglari 5 tadan, changchisi 10 ta. Tojbargining ikkitasi qayiqcha, ikkitasi ikki yonida eshkak, bittasi ustida yelkan hosil qiladi. Mevasi dukak. Burchoqdoshlar – Fabaceae	6
-	Barglari panjasimon murakkab, qarama-qarshi joylashgan. Kosachasi 5ta, tojbarglari 4-6 ta, changchilari erkin 5-8 ta. Mevasi uch xonali ko'sakcha. Soxta kashtandoshlar – Hippocastaniaceae	
7	Kosacha va tojbarglari 5 tadan, changchisi ko'p (12 tadan ortiq). Ra'nodoshlar – Rosaceae.	8
-	Belgilari boshqacha	8
8	Barglari pajasimon murakkab, 5 ba'zan 7 bo'lakli. Guli qiyshiq kosacha va tojbarglari 5 tadan	9

Tizimguldoshlar – <i>Verbenaceae</i>		
-	Belgilari boshqacha	8
9	Gullari ikki jinsli, yakka-yakka yoki to'pgul hosil qiladi. Tojbarglari g'ildiraksimon, varokasimon yoki naysimon, uchi asosan ikki labli, changchilari 4-5 ta. Mevasi bir yoki bir nechta urug'li, rezavor yoki ochilmaydigan quruq ko'sakcha. Buta.	10
Shilvidoshlar – <i>Caprifoliaceae</i>		
-	Daraxt	10
10	Bo'yi 5-15 metrli daraxt. Barglari o'yma 3-5 (ba'zan 7) bo'lakli. Guli mayda, shingil shaklida to'pgul hosil qiladi. Bir yoki ikki shingilli. Kosacha va tojbarglari 4-5 tadan, oq yoki sarg'ish-yashil rangli. Changchili 4 tadan 12 tadan, ko'proq 8 ta, gulbarglaridan 1-3 marta uzun. Mevasi yassi, ikki qanotli va ikki urug'li.	11
Zarangdoshlar oilasi – <i>Aceraceae</i> .		
-	Belgilari boshqacha	11
11	Barglari patsimon murakkab, 5-11 bargli. Guli to'g'ri shingil shaklidagi to'pgulga yig'ilgan. Bir yoki ikki jinsli. Kosacha va tojbarglari 4 tadan yoki reduksiyalangan. Changchisi ikkitadan to'rttagacha. Mevasi ko'sak, yakka qanotli donacha daraxt yoki buta.	12
Zaytudoslar – <i>Oleaceae</i> .		
12	Barglari yirik butun. Gullari yirik, xushbo'y hidli, gulqo'rg'oni 6-12 tagacha, changchisi ko'p, mevasi qubbasimon. Daraxt	13
Magnoliyadoslar – <i>Magnoliaceae</i>		
-	Barglari butun, ellipissimon yoki tuxumsimon. Tojbarglari sarg'ish-yashil. Changchilari 4-5 tadan, tugunchasi 2-4 xonali. Tikanli daraxt yoki buta	14
Chilonjiydadoslar – <i>Rhamnaceae</i>		
13	Mevasi yengil, yong'oqcha yoki qanotli yong'oqcha	14
-	Mevasi ko'sakcha, rezavor yoki dukak	19
14	Gullari oqish (sariq, nisbatan kichik, soyabonsimon to'pgulli). Tugunchasi ustki. Urug'chisi bitta, beshta tojsimon changchilaridan tashqari yana ko'p sonli changchilari bor. Mevasi yong'oqcha, bargi yuraksimon, cheti arra tishli. Daraxt.	15
Jo'kadoslar – <i>Tiliaceae</i>		
-	Belgilari boshqacha	15
15	Gullari sharsimon to'pgulli, ayrim jinsli, gulqo'rg'oni ikki qavat. Changchili gullarida 3-8 ta changchi, urug'chi gullarida esa 3-8 urugchisi bor. Mevasining uchi butunga o'xshash cho'ziq yong'oqcha. Barglari 3-7 bo'lakli, novdada ketma-ket joylashgan. Daraxt.	16
Chinordoslar – <i>Platanaceae</i>		
-	Gullari bir jinsli. Changchili gullari kuchalasimonto'pgulli.	16
16	Changchili gullari uzun, osilib turadigan kuchalalarda notekis joylashgan. Urug'chi gullari yakka-yakka yoki 2-3 tadan joylashgan va mayda ko'p sonli gul yon barglar bilan, o'rama aylanadi. Mevasi hakala	17

- yong'oq.
- Bukdoshtarlar – *Fagaceae*
- Changchi va urug'chi gullari o'zaro zich joylashgan, osilib turadigan kuchalalar hosil qiladi. Urug'chi gullari ostida o'rama gullari bo'lmaydi yoki bo'lsa ham 3 dona bo'ladi. Ularni yubi bir-birga qo'shilgan bargchalardan iborat bo'lib, mevasidan ancha uzun bo'ladi. Mevasi yong'oqcha. 18
- Qayindoshlar – *Befulaceae*
- 17 Mevasi dukak yoki rezavor 18
 - 18 Gullari bir jinsli yoki ikki uyli, gulqo'rg'oni 4 bargchali oddiy. Changchisi to'rtta, urug'chisi ikki urug' bargli. Sut shirali daraxt yoki buta. 19
- Tutdoshtarlar – *Moraceae*
- Gullari qo'sh jinsli yoki qo'sh gulqo'rg'onli 20
 - 19 Guli ikki uyli. Mevasi ko'p urug'li mayda ko'sakchadan iborat bo'lib, qanotsiz. U uchidan yorilib ochiladi. Urug'lari o'ta mayda, momiq kabi oppoq tuklar bilan qoplangan. 20
- Toldoshlar – *Salicaceae*
- Guli bir jinsli. Urg'ochi gullari barg qo'ltig'ida bittadan bo'lib joylashgan, erkak gullari esa bitta barg qo'ltig'ida, ba'zan juftlashib, ayrim hollarda esa uchtdan bo'lib joylashgan. Kosacha va tojbarglari 4 tadan. Mevasi mazzali yumshoq, jiyyda yoki tuxum kattaligida bo'ladi. 21
- Xurmodoshlar – *Ebenaceae*
- 20 Gullari qo'sh gulqo'rg'onli, yirik, 7-12 sm. Oq, pushti rangda. Changchilari ko'p, ipchalari bir-biriga tutashgan, mevasi ko'sakcha. 22
- Gulhayridoshlar – *Malvaceae*
- Belgilari boshqacha 21
 - 21 Doimiy yashil buta. Barglari qarama-qarshi joylashgan. Gullari kallaksimon to'pgul. To'pgulqo'rg'oni 3-6 ta bargdan iborat. 22
- Shamshoddoshlar – *Buxaceae*.
- Belgilari boshqacha 22
 - 22 Gullari gulqo'rg'onsiz yoki gulqo'rg'ini oddiy va rangsiz, ba'zan uplyonka yoki kichkina tangachaga o'xshaydi. Barglari murakkab, patsimon. 23
 - Gulqo'rg'oni oddiy, rangdor yoki qo'sh gulqo'rg'onli, barglari oddiy 24
 - 23 Barglari poyada ketma-ket joylashgan. Changchi gullari kuchala hosil qiladi. Urug'chi gullari yakka-yakka yoki bir nechtdan bo'lib to'p-to'p joylashgan. Mevasi soxta dukakli yong'oq. 24
- Yong'oqdoshlar – *Juglandaceae*
- Bargari 5-12 juft yonbargchali, toq patsimon murakkab barg, o'tkir qo'lansa hidli. 25
- Simarubdoshtarlar – *Simarubiaceae*
- 24 Bargari yonbargchali, oddiy, cheti arra tishli, gulqo'rg'oni besh bo'lakli, changchilari 4 ta, tumshuqchasi ikkita, mevasi namli yoki quruq, 25

- danakli meva.
- Qayrag'ochdoshlar – *Ulmaceae*
- Barglari oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan. Kosacha hamda tojbarglari va changchilari 4-5 tadan. Mevasi 3-5 bo'lakli ko'sakcha. Barglari qalin, yaltiroq doimiy yashil buta 27
- Normushkdoshlar – *Celastraceae*.
- 26 Barglari novdada ketma-ket joylashgan, katta, mayda, yumshoq yoki tangachasimon bo'lib, novdalarda juda zich o'rnashgan. Gullari mayda, pushti boshhoqsimon yoki shingilsimon to'pgulli, kosabarg va tojbarglari 4-5 tadan, changchilari 4-10 tadan, ustunchalari 3-4 (5) ta. Mevasi bir xonali ko'sakcha, 3-4 bo'lak bo'lib ochiladi. 28
- Yulg'undoshlar – *Tamaricaceae*
- Belgilari boshqacha
- Barglari yonbargsiz. Gulari shingilsimon yoki ro'vaksimon to'pgulli. Gulqo'rg'oni besh bo'lakli. Changchilari 3-5 tadan. Ustinchasi 1 ta, tumshuqchasi beshta. Barglari patsimon murakkab (sassiq daraxt Aylant bargiga o'xshash). (Sumax). 29
- Pistadoshlar – *Anacardaceae*
- Belgilari boshqacha. Bnarglari oddiy tor nashtarsimon, ostki qismi oq tukli, novdada qarama-qarshi joylashgan. Gullari boshhoqsimon shingilda joylashgan. Buta o'simlik. 30
- Loganiyadoshlar – *Loganiaceae*. (Buddleya davida – *Buddleia Davidii Franch*)

3.2. Turkum va turlar aniqlagichi

- I Qizilchadoshlar – *Ephedraceae* oilasi
- Turkum. *Ephedra* – qizilcha
- 1 Bo'yi 1-1.5 metrli butalar 2
 - 2 Shoxlarining bo'g'im oralig'i 2 sm. Bo'yi 1.5 metrgacha. Tanasi shoxlari yo'g'on. Urg'ochi qubbasi bir gulli, bir urug'li. Barglari ikkitadan bo'lib qarama-qarshi joylashgan. 3
- Qirqbo'g'imsimon qizilcha – *ephedra equisetina Bge.*
- II Qarag'aydoshlar oilasi – *Pinaceae*.
- Turkumlar aniqlagichi
- 1 Nina barglari novdada bittadan joylashgan, uzunligi 1.5-3.5 sm. 1
- Qoraqarag'ay – *Picea pictrich* turkumi.
- Oddiy qarag'ay – *Picea excels Linx.*
- Ninabarglari ikkitadan joylashgan, uzunligi 8-15 sm.
 - 2 Qarag'ay – *Pinus L.* turkumi.
- Qrim qarag'ayi – *Pinus pallasiona Lamb.*
- III Ginkgodoshlar oilasi – *Ginkgoaceae biloba L.* Turi, ginkgo turkumi.
- IV Archadoshlar oilasi – *Cupressaceae*
- Turkumlar aniqlagichi

- 1 Qubbasi yumaloq yoki biroz cho'ziq, yetilish jarayonida etdor smolali bo'ladi. Yog'ochlashmaydi, pishganda ham ochilmaydi.
1.Archa – *Juniperus L.* Turkumi
- Qubbasi ko'saksimon, yrtilish jarayonida yog'ochlashadi, pishganda ochiladi.
2.Saur – *Biota D. Don.* Turkumi
1.Virgin archasi – *Juniperus virginiana L.*
2.Sharq sauri – *Biota oriyentalis (L) Ende.*
- V Toldoshlar oilasi – *Salicaceae*
Turkumlar aniqlagichi
- 1 Barglari qisqa bandli. Gul oldi tangachabarglari butun. Changchilar soni 2 yoki 3-5 ta. Gul qo'rg'onsiz. Kurtagi bir-bir tangacha bargli.
1.Tol – *SalixL.* Turkumi
- Barglari uzun bandli. Gul oldi tangachabnarglarining uchi qirqilgan. Changchilari ko'p. kurtagi ko'p tangachabrgli.
2.Terak – *Populus L. turkumi*
Tol turkumi – *Salix L.*
Turlar aniqlagichi
- 1 Kurtagi 5-6 mm uzunlikda, novdalari tik, yo'g'on bo'lib o'sadi. Barglari cho'ziq nashtarsimon, o'tkir. Oqtol – *Solix alba L.* turi.
- Kurtagi 3-3.5 mm uzunlikda, novdalari mayin, to yerga egilib o'sadi. Barglari nashtarsimon, osti biroz yashil. Majnuntol – *Salix babylonica L.*
Terak turkumi – *Populus L.*
Turlar aniqlagichi
- 1 Kurtaklari smolali. Barglarining cheti tekis bo'lakli. Mayda tishli. Gul oldi tangacha barglari tuksiz yoki biroz tukli. Ko'sak mevasi tuxumsimon yoki deyarli dumaloq, qalin g'dir-budir po'stli. 2
- Kurtaklari smolasiz. Barglarining cheti notekis bo'lakli, gul oldi tangacha barglari sertuk. Mevasi ko'sak, nashtarsimon yoki cho'ziq tuxumsimon, yupqa silliq po'stli. 3
- 2 Barglarining ikkala tomoni sarg'ish – yashil tusda, uchburchaksimon, uchi birdaniga o'tkirlashgan.
Qora terak yoki Mirza terak – *Populus nigra L.*
- Barglari uzun 12 smga yetadi. Barg bandi ham uzun, tuksiz, xushbo'y hidli balzamga ega. 2
Balsam terak – *Populus balsamifera L.*
- 3 Barg bo'laklari barg etining deyarli choragiga teng. Kurtaklari tuksiz, 4-5 mm uzunlikda. 3
Oq terak – *Populus alba L.*
- Barg bo'laklari barg etining deyarli yarmiga teng. Kurtaklari qalin tuklar bilan qoplangan. 12-15 mm. 4
Baxofen yoki ko'k terak – *Populus bachofenii Wierzb.*
- VI Bukdoshlar (Qora qarag'aydoshlar) oilasi – *Fagaceae.*

	Eman, dub turkumi – <i>Quercus robur L.</i>	
VII	Tutdoshlar oilasi – <i>Moraceae.</i>	
	Turkumlar aniqlagichi	
1	Shoxlari tikonli. To'p mevasining eni 6-12 sm.	1
	Maklyura turkumi – <i>Maclura Nutt. Maclura aurantica Nitt.</i>	
-	Shoxlari tikonsiz. To'pmevasining eni 1-3 sm.	2
2	Novda va barg bandlari deyarli tuksiz. To'p mevasi oq, qora, binafsha, qizil rangda.	2
	<i>Morus L.</i> Turkumi	
-	Novda va barglari uzun tukli. To'pmevasi yrtilganda sarg'ish-qizil rangli.	3
	Qog'oz daraxti turkumi – <i>Broussonetia L Herit Broussonetia Papyrifera (L) L Herit</i>	
	Tut turkumi – <i>Morus.</i>	
	Turlar aniqlagichi	
1	Barg bandi 1.5-3 sm. Barg yaprog'i uzunligi 13 sm, eni 9 sm. To'pmevasi 3-10 mm uzunlikda, qizil, shoxlari kulrang yoki qo'ng'ir.	
1	Qo'naq tut – <i>Morus bombyeis Koidz. Turi.</i>	
-	Belgilari boshqacha	2
2	Barg bandi 3-6 sm. Barg yaprog'I qalin, butun, yaltiroq va silliq, chetlari yirik tishli. To'p mevasi 2.5-3 sm qora.	2
	<i>Morus multicaulis Perr</i> – Yapon tuti turi	
-	Barglari yupqa, yassi 2-5 bo'lakli yoki patsimon qirqilgan, chetlari to'mtoq tishli. To'pmevasi uzunchoq, oq, pushti, qizil, qora.	3
	Oq tut – <i>Morus alba L.</i>	
	Chinordoshlar oilasi – <i>Platanaceae.</i>	
	Chinor turkumi – <i>Platanus L.</i> Sharq chinori – <i>Platanus orientalis L.</i>	
	Ra'noguldoshlar oilasi – <i>Rosaceae.</i>	
	Ra'nogul turkumi – <i>Rosa L.</i> Atirgul – <i>Rosa chinensis jaca.</i>	
	Dukakdoshlar oilasi - <i>Fabaceae.</i>	
	Turkumlar aniqlagichi	
1	Barglari oddiy, shoxlari tikonsiz. Gullari pushti, poya va shoxlarida to'p-to'p bo'lib joylashgan.	1
	Arg'uvon turkumi – <i>Cercis L.</i>	
-	Barglari murakkab, shoxlari tikonsimon, ba'zan tikonsiz. Gullari oq, pushti, sariq.	2
2	Gullari oq. Shoxlari tikonli yoki tikonsiz. Qattiq tukli yoki tikanchali, dukak mevasi silliq.	2
	Akatsiya – <i>Robinia L. Turkumi.</i>	
-	Barglari ikki marta juft patsimon	4
4	Barglari juft patsimon, murakkab, changchilari ko'p, ostki qismi tutashgan, toshbarglarga nisbatan ancha uzun.	4
	Ipak akatsiya – <i>Albissia Durazz turkumi.</i>	
-	Gullari ayrim jinsli, ba'zan qo'sh jinsli, to'g'ri, changchisi 6-10 ta,	

erkin, o'zaro tutshmagan. Dukak mevasi etli. Yirik, pishganda qo'ng'ir rangli, urug'i atrofida ko'plab shira to'planadi va uni iste'mol qilish mumkin.

Tikon daraxti turkumi – *Gleditschia L.*

Arg'uvon turkumi – *Cercis L.*

Qo'zoq mevali arg'uvon – *Cercis siliquastrum L.*

Soxta akatsiya turkumi – *Robina L. Robina pseudoacacia L.*

Safora turkumi – *Sophora L.*

Yapon tuxmagi – *Albizzia Durrazz.*

Ipak akatsiya – *Albizzia julibrissum Durrozz.*

Gledichiya turkumi – *Gleditschia.*

Tikon daraxti – *Gleditschia triacanthos L.*

Shamshodlar oilasi – *Buxaceae.*

Shamshod turkumi – *Buxys L.*

Shamshod daraxti – *Buxys sempervirens L.*

Zarangdoshlar oilasi – *Aceraceae.*

Zarang turkumi – *Aser L.*

Turlar aniqlagichi

- 1 Barglari murakkab, toq patsimon 3-7 bo'lakli, mevasi qanotchali, 3-6 sm.

Shumtol barg zarang – *Acer negundo L.*

- Barglari oddiy, butun, o'ymali yoki bo'lakli 2

- 2 Barglari asosan 5-7 bo'lakli. Hosil shoxchalari ba'zan uch bo'lakli 3

- Barglari butun yoki uchi bir oz 3 qismga kesilgan, chetlari notekis tishli tuxumsimon yoki deyarli dumaloq, uzunligi 4-12 sm, eni 2-8 sm. Mevasi qanotli, 2.5-4 sm, pishganda oq-pushti yoki oq-sariq rangda bo'ladi.

Tatar zarangi – *Acer tataricum L.*

- 3 Barglari ancha yirik, uzunligi 5-18 sm, eti 8-22 sm, 5-7 bo'lakli.

Tugunchasi tuksiz, mevasi qanotchali, 5 smgacha, yassi.

Chinor bargli zarang – *Acer platanoides L.*

- Barglari yarmigacha yoki 2/3 qismigacha qirqilgan, eni 5-10 sm, ba'zan uch bo'lakli, usti qoramtir yashil, orqasi oqish. Chanchilari gulqo'rg'onidan biroz uzun. Yosh novdalari sarg'ish-qo'ng'ir.

Dala zarangi – *Acer compestre L.*

Soxta kashtandoshlar oilasi – *Hippocastaniaceae.*

Soxta kashtan turkumi – *Aesculus L. Aesculus hippocastanum L.*

Chilonjiydoshlar oilasi – *Rhamnaceae.*

Chilonjiyda yoki unobi turkumi – *Ziziphus Mill.*

Chilonjiyda – *Zizyphus jujube Mill.*

Jo'kadoshlar oilasi – *Tiliaceae.*

- 1 Juka (lipa) turkumi – *Tillia L. Tillia platyphyllas Scop.*

Gulhayridoshlar oilasi – *Malvaceae.*

- 1 Bo'ritaroq turkumi – *Hibiscus L.*

	Suriya bo'ritarog'I – <i>Hibiscus syriacus</i> L.	
	Zaytundoshlar oilasi – <i>Oleaceae</i> .	
	Turkumlar aniqlagichi	
1	Barglari oddiy, butun yoki bo'laklarga bo'lingan.	2
-	Barglari murakkab, toq patsimon yoki uch bo'lakli.	4
2	Barglari butun cheti tekis.	3
-	Barglari butun bo'lakli, cheti tishli.	1
	Forzitsiya – <i>Forsythia</i> Vahl.	
3	Barglari keng, tuxumsimon yoki cho'ziq nashtarsimon.	2
	Siren – <i>Syringa</i> L.	
-	Barglari nashtarsimon qattiq.	
	Ligutrum – <i>Ligustrum</i> .	
4	Daraxt. Shoxchalari qo'ng'ir, barglari qarama-qarshi yoki xalqasimon jylashgan.	4
	Shumtol turkumi – <i>Fraxinus</i> L.	
-	Buta shoxlari yashil. Barglari navbatlashib joylashgan.	5
	Jasmine – <i>Jasminium</i> L.	
	Turlar aniqlagichi	
	Shumtol – <i>Fraxinus turkumi</i>	
1	Barglarining chekka qismi o'tkir tishli. Bosh barg bandi va bandchalar taksiz	2
-	Barglarning faqat tekis qismi tishchali. Bosh barg bandi va bandchalar tukli.	
	Qora shumtol – <i>Fraxinus pensylranica</i> L.	
2	Yuqori qismidagibargchalar teskari tuxumsimon, nashtarsimon, cho'ziq nashtarsimon yoki nashtarsimon.	
	Oddiy shumtol – <i>Fraxinus excelsior</i> L.	
	Forzitsiya – <i>Forsythia</i> L. turkumi	
	Osilgan forzitsiya – <i>Forsythia suspense</i> Vahl.	
	Siren – <i>Syringa</i> turkumi.	
1	Barglari keng yoki ingichka tuxumsimon, asosi yuraksimon kesilgan.	
	Oddiy siren – <i>Syringa vulgaris</i> L.	
-	Barglari tuxumsimon-nashtarsimon yoki cho'ziq nashtarsimon. Gullari pushti.	
	Hindiston sireni – <i>Syringa indica</i> .	
	Shilvidoshlar oilasi – <i>Caprifoliaceae</i> .	
	Turkumlar aniqlagichi	
1	Gullari qalqonsimon to'pgul hosil qiladi.	
	Marjon daraxti – <i>Sambucus</i> L.	
-	Gullari juft-juft bo'lib joylashgan yoki shingilsimon to'pgul hosil qiladi.	
	Shilvi – <i>Lanicera</i> L.	
	Marjon daraxti turkumi – <i>Sambucus</i> L.	
	Marjon daraxti – <i>Sambucus nigra</i> L.	
	Shilvi turkumi – <i>Lanicera</i> L.	

Tatar shilvisi – *Lanigera tatarica* L.

Simarubdoshlar oilasi – *Simarubceae*.

Aylant turkumi – *Ailanthus* Dest.

Bo'ygan aylant – *Ailanthus altissima* (Mill) Swing.

Qayrag'ochdoshlar oilasi – *Ulmaceae*. Ulmas L. Turkum

Po'kak qayrag'och – *Ulmus suberosa* Moench.

Xurmodoshlar oilasi – *Ebenaceae*.

- 1 Safsan – *Diospyros* turkumi.

Turlar aniqlagichi

- 1 Yeyuk holdagi barglarning har ikki tomoni tuksiz yoki ostki tomoni tukli yoki o'rta tomir atrofi tukli. Mevasi jiyda mevasi kattaligida mayda.

Birgin xurmosi – *Diospyros virginiana* L.

- Yetuk barglarning har ikki tomoni tuksiz yoki ostki tomoni siyrak tukli. Barg banmd 1 smdan qisqa. Barg yaprog'ining asos qismi yumaloqroq. Mevasi tuxumdek yirik.

Sharq xurmosi – *Diospyros kakki* L.F.

Normushukdoshlar (berskletdoshlar) oilasi – *Celastraecal*.

Normushk turkumi – *Evonymus* L.

Yapon normushki – *Evonymus yaponica* L.

Yong'oqdoshlar oilasi – *Juglandaceae*.

Yong'oq turkumi - *Juglanus* L.

Turlar aniqlagichi

- 1 Mevasi yong'oq shaklida, po'stidan danakli qismi, danakdan mag'izli qismi oson ajraladi.

Yong'oq – *Juglans* L. *Juglans regia* L.

- Juft po'stli, mevasi yong'oq shaklida, po'stidan va danak qismi mag'izdan qiyin ajraladi yoki ajralmaydi.

Qora yong'oq – *juglans nigra* L.

Qiyindoshlar oilasi – *Befulaceae*.

Turkumlar aniqlagichi

- 1 Changchili gullari novda yonida chiqqan kuchalalarda, urug'chi gullari uch tomondan chiqqan to'pgulda joylashgan.

Grab – *Carpinus*.

- Changchili gullari shoxchalar uchidan chiqqan kuchalalarda, urug'chisi gullari novda yonida chiqqan to'pgulda joylashgan.

Qayin – *Befula*.

Grab – *Carpinus befulus*;

Oq qyin – *Befula pendula* Roth.

Tizimdoshlar oilasi – *Verbenaceae*.

Turkum maryam daraxti – *Vitex*.

Maryam daraxti – *Vitex agnus Castus* L.

Magnoliyadoshlar oilasi – *Magnaliaceae*.

Turkumlar aniqlagichi

- 1 Barglari och yashil, yaltiroq 12-15 sm uzunlikda, uchi qirqilganga o'xshash ko'rinishda. Biroz yirik yirik lola guliga o'xshash, 6 sm uzunlikda.
Lola daraxti – *Ligiodendron*.
- Barglari 12-25 sm uzunlikda qalin etli, osti sarg'ish. Guli 17-22 sm uzunlikda oqish sut rangli *Magnoliya L.*
Lola daraxti – *Liriodendron* turkumi.
Liriodendron tulipifera L.
Magnoliya – *Magnolia* turkumi. *Magnolia grandiflora L.*
Bignoniyadoshlar – *Bignoniaceae*.
Katal'pa turkumi – *Catalpa*.
Turlar aniqlagichi
- 1 Barglarning uch qismi qisqa o'tkirlashgan, yoqimsiz hidli. To'pguli ko'p gilli. 1
Bignoniyasimon katal'pa – *Catalpa bignonioides Walt.*
- Barglarining uchki qismi uzun o'tkirlashgan, hidsiz. To'p guli kam gulli. 2
Go'zal katal'pa – *Catalpa specioso*.
Loganiyadoshlar – *Loganiaceae*.
Turkum. Buddleyya – *Buddleia*. *Buddleia davidii Franch.*
Yulg'undoslar – *Tamaricaceae*.
Yulg'un turkumi – *Tamarix hispida*.
Pitadoshlar – *Anacordaceae*.
Totem turkumi – *Rhus*.

IV BOB. AL-FARG'ONIIY BOG'IDA O'STIRIB KELINAYOTGAN O'SIMLIK TURLARINING BIOEKALOGIYASI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI.

4.1. Bog'da ro'yxatga olingan o'simliklarning bioekologiyasi.

Quyida bog'da ekib o'stirib kelinayotgan manzarali o'simliklarning biologiyasi va ekalogiyasi, ularning foydali xususiyatlari haqida qisqa-qisqa ma'lumot berishga harakat qilamiz. O'simliklarning biologiyasi va ekalogiyasi hamda foydali hususiyatlari borasida olib borgan kuzatishlarimiz, tajribalarimiz va ma'nalar asosida to'plagan ma'lumotlarni tahlil qilish umumlashtirish natijasida ularni quydagicha bayon qilishga erishdik.

1.Qizilcha- *Ephedra equisetina* Benge. Qizilcha turkumi 40 ta turga ega. U o'rta yer dengizi atrofidagi cho'larda keng tarqalgan buta o'simliklardan iborat. Ephedro eko qizilcha shu nom bilan yuritiladigan oilaga mansub tashqi qiyofasi jihatdan qirqbo'g'imga o'hshab ketadi. Turkum turlari orasida bo'yi 15- 40 smga yetadigan turlari bilan birga, 5-8 metr ga yetadigan turlari ham mavjud. Lekin ko'pchilik turlari biroz kichik buta shaklida bo'lib o'ta kuchli shoxlangan. Barglari qisqargan, mayda, tangachasi bo'lib, poyada qarama qarshi yoki halqa shaklida joylashgan. U ikki uyli o'simlik. Erkak tupida qubbalari 2-4 tadan bo'lib bo'g'imlarida joylashgan. Qubba o'qida 1-8 juft tangachasimon barg joylashgan. Yuqori qismidagi qo'ltiqlarida mikrosporofillar joylashgan va ularning har birida 2-8 ta gacha mikrosporangiy, unda mikrospermi etiladi. Urg'ochi tupidagi barg qo'ltiqlarida urg'ochi qubbalar hosil bo'ladi. O'qni uchida urug' kurtak etiladi. Urug' kurtagi markazida nutsellus, unda endisperm hosil bo'ladi, uni yuqori qismida 2 ta arxegoniy xosil bo'ladi. Urug'lanish spermiylar yordamida sodir bo'ladi.

U shifobaxsh va manzarali o'simlik sifatida ahamiyatlidir.

2. Ginkgo-Ginkgo turkumi, ginkodoshlar oilasiga mansub bo'lib bir dona turga ega.

Ginko biloba- Ginko biloba. Manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi. U mezazoy erasida yer yuzasida keng tarqalgan bo'lgan. Muz davrining boshlanishi bilan hamma yerda iqlimning o'zgarishi natijasida yo'q bo'lib ketgan, faqat yarim yovvoyi holda Sharqiy Osiyoda uchlamchi davrning relik t o'simligi tarzida saqlanib qolgan.

Ginko biloba chiroyli monopodial shoxlangan daraxt bo'lib, bo'yi 30 m ga yetadi va tashqi qiyofasi jihatidan mirzaterakka o'xshaydi. Bargi oddiy, bandli, yaprog'i yelpig'ichsimondir. Barg tomirlari dixatomik shoxlangan. Ginko bilobaikki uyli osimlik. Urug'i qalin po'stli, tashqi po'sti etli, ichki po'sti esa toshdek qattiq bo'ladi. Urug'i pistadek bo'ladi, uni qovurib yeyiladi. Yog'ochlik qismidan esa mebellar tayyorlanadi. U tuproqq talabchan emas, havoda chang to'zon bo'lsa ham uni oson o'tkazadi. Ayrim turlari Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Andijonda ham uchraydi. Lekin Xitoy va Yaponiyada ko'plab ekib o'stiriladi.

3. *Pinus*- Qarag'ay turkumi, qarag'aydoshlar oilasiga mansub bo'lib 100 dan ortiq turni o'z ichiga oladi. Ular doimiy yashil daraxt bo'lib, barglari ninasimon. Qarag'ay turlari asosan Shimoliy yarim sharda, qisman trpikaning tog'li qismida ham tarqalgan va ularning har biri mustaqil o'rmonzorlar xosil qiladi.

Pinus pallasiana-Qirim qarag'ayi manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi. Bo'yi 40 m ga yetadigan, shox-shabbalari soyabonsimon yoki konussimon, nina barglari to 18 sm ga yetadigan doimiy yashil daraxt. Tabiiy holda Qrim va Kavkaz tog'larida o'sadi. Manzarali o'simlik sifatida bog'larda, xiyobonlarda ekib o'stiriladi. U turli kasalliklarga bardoshli, yorug'likka nisbatan talabchan, tuproqqa esa uncha talabchan emas. Tabiiy xolda o'rmonlar xosil qiladi, uning yog'ochi o'ta mustahkam, smolali.

4. *Dicea Districh*- Qora qarag'ay turkumi Qarag'aydoshlar oilasiga mansub bo'lib, 45 turni o'z ichiga oladi. Ular doimiy yashil, chiroyli, yirik daraxt bo'lib, shoxchalari soxta xalqa shaklida joylashgan. Nina barglari qattiq, to'rt qirrali poyada bittadan navbatlashib joylashgan. Ular Yevropa va Osiyoda, Shimoliy

Amerikada tarqalgan. Ular salqinga chidamli lekin zavodlar chiqaradigan gazlarga chidamsiz.

Piceae excelsa –Oddiy qoraqarag'ay bo'yi 30-45m ga yetadigan, shox-shabballari chiroyli, to'q yashil, piramidal shaklda, soyaga chidamli. O'q ildizi tezda o'sishdan to'xtaydi va uning o'rniga yon tomonga ketgan baquvvat yon ildizlar rivojlanadi. Nina bargi 2-3 sm uzunlikda, u qirrali, ko'ndalang kesimi rumb shaklida bo'lib, qalin o'rnashgan. U shimoliy Yevropada keng tarqalgan bo'lib, mustaqil va boshqa qarag'ay turlari bilan birgalikda o'rmonzorlarni xosil qiladi. Oddiy qarag'ay manzarali o'simlik sifatida keng ko'lamda ekib o'stirilmoqda.

5. *Biota*-turkumi archadoshlar-Sarvdoshlar oilasiga mansub o'simlik bo'lib, uning bir turi bor. U Xitoyning shimoliy qismida tarqalgan. *Biota orientalis* Endl-Sharq sarvi. Bo'yi 15-18 m ga yetadigan daraxt yoki buta. Uning barglari och yashil rangda, qubباسي 10-20mm, 3-4ta ustma ust joylashgan tangachalardan tashkil topgan va chanoqsimon ko'rinish xosil qiladi. Mart-aprel oyida gullaydi, urug'lari sentabr-oktabr oylarida yetiladi. Bu o'simlik xilma xil ko'rinishdagi manzara xosil qiladi. Shuning uchun u hozirgi kunda keng ko'lamli manzarali o'simlik sifatida ekib o'stirilmoqda. Uning vatani Yaponiya va Xitoy hisoblanadi.

6. *Juniperus* –Archa turkumi, sarvdoshlar oilasiga mansub bo'lib, 70 turga ega, ularning xammasi doimiy yashil daraxt. Archaning turlari tabiiy holda asosan Shimoliy yarim sharda tarqalgan, bir qismigina tropikaning tog'li qismida uchraydi. Barglari ninasimon yoki ko'proq tangachasimon. Qubbalari rezavorsimon. Ko'pchiligi yorug' sevuvchi, qurg'oqchilikka chidamli. Ayrimlari tabiatda o'rmon xosil qiladi. Ko'pchiligi manzarali daraxt yoki buta, lekin havoni dimiqishi va chang to'zoniga o'ta chidamsiz.

Juniperus Virginiana- Virginiya archasi. Bo'yi 15-30 mgacha yetadigan sershox daraxt. Barglari yashil mayda 2mm uzunlikda, tangachasimon, xar bir bo'g'imida 3 tadan bo'lib joylashgan. Qubباسي mayda mosh kattaligida yetilganda qoramtir rangli 1-2 urug'li. Gullashi mart-aprel, urug'larining yetilishi sentabr-oktabr oylarida kuzatiladi. U manzarali o'simlik sifatida hamma joyda ekiladi. Vatani Shimoliy Amerika. U fitonsitlarga boy xar jihatdan foydali va ko'rkam

o'simlik. Tuproqqa uncha talabchan emas. Biroz sho'rlangan yerlarda yaxshi o'sadi. Yog'ochlik qismidan qalam va mebellar tayyorlashda foydalaniladi.

7. **Salix**- Tol turkumi, toldoshlar oilasiga mansub bo'lib, 600dan ortiq turni o'z ichiga oladi va ular yer sharining xar ikki yarim sharida tarqalgan daraxt, buta, butachalardir. Ular ikki uyli gulqo'rg'onsiz o'simlik. Barglari oddiy, yaxlit, gullari kuchala shaklidagi to'pgulda yig'ilgan. Eng erta gullaydigan, tez o'sadigan va qalamchasi yordamida oson ko'payadigan manzarali o'simlikdir.

Salix alba- Oq tol. Bo'yi 20-30 mgacha yetadigan, po'stlog'i tilim-tilim bo'lib yoriladigan daraxt. Bargi toq nashtarsimon, o'tkir uchli, cheti maydaarratishli, chetki tomoni to'q yashil, xar ikki tomoni tukli. Guli bilan birga bir vaqtda xosil bo'ladi. Aprel- may oylarida gullab urug'laydi. Tabiiy holda Eronda tarqalgan, lekin uni manzarali o'simlik sifatida yer yuzining deyarli hamma qismida ekib o'stiriladi.

8. **Populus**-Terak turkumi ham toldoshlar oilasiga mansub bo'lib, 110 turni o'z ichiga oladi. Shundan 12 turi ekib o'stiriladi. Bularning hammasi Shimoliy yarim sharda tabiiy holda tarqalgan. Terak turlari ikki uyli, ayrimlarini bo'yi 40-45(60) mga yetadi. Gullari kuchalasimon, barglari bilan teng xosil bo'ladi yoki oldinroq hosil bo'ladi. Mevalari ko'sak, urug'lari ko'p sonli tuklarga ega. Urug'i tezda unish qobilyatini yo'qotadi. Shuning uchun ular qalamcha, to'nka, ildiz bachkilari yordamida vegetativ yo'l bilan oson ko'payadi va tez o'sadi. Yog'ochlik qismidan qog'oz, faner va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi, qurilish materiali sifatida qadimdan foydalanib kelinadi.

Populus alba- Oq terak. Bo'yi 30-35 mgacha yetadigan, diametri esa 2 m bo'ladigan, shox shabballari yoyiq yoki piramidasimon. Barglari 3-5 notekis bo'laklarga bo'lingan. Aprel-may oylaridan gullab urug'laydi. Tabiiy holda O'rta Osiyo, Kavkaz, Yevropa va Afrikada uchraydi. Uni ko'proq manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi. Shuningdek qurilish materiali sifatida ham ahamiyatlidir.

Populus nigra-Qora yoki mirzaterak. Bo'yi 30m gacha yetadigan, diametri esa to 4 metrgacha bo'ladigan, shox shabballari piramidasimon daraxt. Barglarining bandi 2-4 sm, yaprog'I 4-8 sm, shakli uchburchaksimon yoki rumbsimon. Mart-



5-rasm. Bog' yo'lagidagi shakl berilgan shamshodlar



6-rasm. Chinorbarg zanrg - *Acer platanoides*

aprel oylarida gullab urug'laydi. Mirzaterak manzarali o'simlik sifatida, shuningdek qurilish materiali sifatida ham ahamiyatlidir. Qadimdan shu maqsadlarda ekib kelinmoqda. Tabiiy xolda Yevropada tarqalgan.

Populus bachoteni Wier- Ko'k terak. Boyi 35 mgacha yetadigan, shox shabballari piramidasimon, barglari 3-7 noteks bo'lakli, qalin yashil kumush rangli daraxt. U tez o'sib, tez yetiladi. 10 yilda 15-18 m gacha o'sadi. Mart-aprel oylarida gullab urug'laydi. Ko'k terakni asosan manzarali o'simlik hamda qurilish materiali olish maqsadida ekib o'stiriladi. Tabiiy xolda O'rta Osiyoda tarqalgan.

Populus balsamitera- Balzam terak. Bo'yi to 30 m gacha yetadigan, diametric 4-5 metr ga boradigan, shox shabballari keng tuxumsimon daraxt. Bargi uzun tuksiz bandli, bo'yi 12 sm ga yetadigan, o'zidan xushboy va yoqimli xid taratuvchi daraxt. Ayniqsa yog'ingarchilikdan keyin yoqimli xidlari sezilarli darajada ko'p bo'ladi. Qalamchalari bilan oson ko'payadi, 100 yilgacha yashashi mumkin. Uning o'sishi namli joylarda ya'ni daryo, soy qirg'oqlarida tez boradi. 20 yilda uning bo'yi 22-23 m ga yetishi mumkin. Uning ko'rinishi, xushboy yoqimli xidi va tez o'sishini hisobga olib bog'u-ko'chalarda shuningdek uni yog'ochlik qismidan selulozaolish maqsadida ham boshqa joylarda ham ko'plab ekiladi. Tabiiy holda u Shimoliy Amerikada tarqalgan.

9. *Juglan*. Yong'oq turkumi, yong'oadoshlar oilasiga mansub bo'lib, u 40 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Yong'oq turkumiga mansub turlar asosan Shimoliy yarimsharning tropik, subtropik va issiqlik bir meyorda bo'ladigan o'lkalarda tarqalgan. U mevali va manzarali yirik daraxt o'simlik bo'lib, xar ikki maqsadda ekiladi. Ko'proq mevali va manzarali o'simlik sifatida 6 turidan foydalaniladi.

Juglans regia-Yong'oq. Bo'yi 30-35 m ga yetadigan daraxt. Shox shabballari keng, tanasining diametric 2 m va undan ortiq yo'g'onlikda bo'lishi mumkin. Barglari toq patsimon. Gullari ayrim jinsli, erkak gullari kuchala xosil qiladi, urg'ochi gullari 1-2 yoki 3 tadan bo'lib novda uchida joylashgan. May oyida gullab, mevasi sentabr-oktabr oylarida yetiladi. U dorivor, oziq-ovqat, rang beruvchi, oshlovchi moddalarga boy hamda manzarali o'simlik. Yong'oq ekib o'stirilgan joyda zararli mikroblar kam bo'ladi, chunki undan ajralib chiqadigan

uchuvchi moddalar mikroblarga qiron keltiradi. Shuning uchun shifoxonalar va bolalar bog'chalari xovlisida, bog'ida ekib o'stirish faqat foyda keltiradi xolos. Tunda shaboda esmasa uni tagida uxlash tavsiya etilmaydi. Chunki tunda o'simlik nafas oladi lekin kislorod ajratmaydi, natijada o'simlik tanasidan ajratilgan uchuvchi moddalar to'planib qoladi, oqibatda yotgan odam o'zini biroz yomon xis qilishi mumkin. Yong'oq tabiiy holda O'rta Osiyoda keng tarqalgan, eng kata yong'oqzorlar shu yerda xosil bo'lgani uni vatani O'rta Osiyo deb aytishga asos bo'ladi.

Juglans nigra- Qora yong'oq. Bo'yi 50 mgacha yetadigan, po'stlog'i qoramtir chuqur yorilgan, bargi 25-50 sm bir bargdagi bargchalar 4 juftan ortiq. Mevasi yong'oq, mag'izi orasiga taqalib tomirlar singari kirib kelgan va mag'iz to'liq ajralmaydi. Oshlovchi moddalarga va bo'yoqqa boy o'simlik. Shuningdek bu turi ham o'zidan uchuvchan modda ajratadi. Manzarali o'simlik sifatida ko'p joylarda ekiladi. Tabiiy holda Shimoliy Amerikada tarqalgan.

10. *Betula*. Qayin turkumi, qayindoshlar oilasiga mansub bo'lib, u 120 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Uhihg turlari Shimoliy yarimsharning deyarli xamma qismida uchraydi. Qayinning 25 turi ekiladi.

***Betula pendula* Rith**-Oq qayin. Bo'yi 20 mga yetadigan daraxt. Po'stlog'i oq, ajraluvchan. Barglari ro'mbsimon-tuxumsimon, tuksiz, cheti o'tkir tishli. Bir uyli, ayrim jinsli, gullari to'planib kuchala xosil qiladi. Aprelda gullab, oktabrda urug'laydi. Manzarali dorivor o'simlik.Tabiiy holda Yevropada tarqalgan. Manzarali o'simlik sifatida kam ekiladi.

11. *Carpinus*-Grab turkumi, qayindoshlar oilasiga mansub bo'lib, 50 turni o'z ichiga oladi. Ular ko'proq tabiiy holda Shimoliy yarim sharning orta mintaqali qismida tarqalgan. Uning 2 turi manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi.Barglari oddiy, chetlari qo'sh tishli.Gullari to'planib kuchala shaklidagi to'pgulni xosil qiladi.Erkak gullari gulqo'rg'onsiz, changchilar soni 4-12 ta. Urug'chi gullari 2 tadan bo'lib, tez tushib ketuvchi gul oldi barglari qo'ltig'ida xosil bo'ladi. Ular ko'proq bog'larda ekib o'stiriladi.



7-rasm. Katalpa *Catalpa speciosa* mevasi



8-rasm. Arg'uvonning bargli yosh novdalari

Carpinus betulus- Oddiy grab. Bo'yi 25 mga yetadigan daraxt. Yosh novdalari tukli. Kurtagi qizg'ish- qo'ng'ir rangda, tuksiz. Bargi tuxumsimon, asosi yuraksimon yoki yumaloq, cheti qo'sh tishli, bo'yi 15 sm, kengligi 6sm. Yosh barglari ipaksimon tukli, keyinchalik tuksiz yoki kam tukli bo'lib qoladi. Changchi gulining bo'yi 6 smga teng. Changchilar soni 5-7 ta. Urug'chi gullarining kuchalasimon to'pgulining bo'yi 15 sm gacha bo'ladi. Mevasi yong'oq. Mart-aprel oylarida gullab, mevasi iyun-iyul oylarida yetiladi. Tuproqqa uncha talabchan emas, soyaga ancha bardoshli. U sekin o'sadi, shuning uchun yog'ochlik qismi juda ham qattiq. Yog'ochidan mashinasozlik sanoatida va musiqa asboblari tayyorlashda foydalaniladi. Ildiz bachki va to'nkalar yordamida ko'payadi. Tabiatda u kamdan kam sof, ko'proq aralash o'rmonlar xosil qiladi. Oddiy grab Yevropada, Qrim va Kavkazda tabiiy holda tarqalgan. Manzarali o'simlik sifatida kam ekiladi. Uni mevasidan olinadigan yog' atir tayyorlashda ishlatiladi.

12. *Quercus*-eman, dub turkumi qora qayindoshlar(bukdoshlar) oilasiga mansub bo'lib 600 turni o'z ichiga oladi. Ular Shimoliy yarimsharning tropik va o'rta mintaqasida tabiiy xolda uchraydi. Uning 43 turi ekib o'stiriladi. Eman turlarining ko'pchiligi yirik daraxt yoki kichik daraxt shaklida bo'ladi. Bazan buta shaklidagilari ham uchraydi. Barglari bo'lmali yoki tishchali bo'lib, asosan ketma-ket joylashgan. Gullari kuchala shaklidagi to'pgul, urg'ochilari esa kuchala hosil qilmaydi. 1ta yoki 2-5 tadan bo'lib joylashgan. Urg'ochi gulining ostki qismi tangachalar bilan o'ralgan. Mevasi bir urug'li yong'oq ustki tomondan po'st bilan qoplangan.

Quercus ruber-Qizil eman. Bo'yi 40 metrga yetadigan keng shox shabbali daraxt. Bargi oddiy, 8-20 sm uzunlikda, kengligi 6-15 sm, 3-5 juft yirik bo'lmali, teskari tuxumsimon. Barg chiqarishi va gullashi bir vaqtga to'g'ri keladi. To'pguli kuchala yoki boshqacha ko'rinishda bo'ladi. Aprel oyida gullab, sentabr oyida urug'laydi. Yong'oqchasining kattaligi 1,5-3,5 sm. Tabiiy holda Rossiyaning Yevropa qismida, G'arbiy Yevropada tarqalgan. U yorug'likka va tuproqqa talabchan. Qurg'oqchilikka va sho'rga ancha chidamli. Qizil eman 400-500 yil

yashashi mumkin. Yog'ochlik qismi pishiq mebel tayyorlashda axamiyati kata.U oshlovchi moddaga boy, mevasining po'sti ich ketishiga yaxshi shifo bo'ladi.

13.Ulmus.Qayrag'och turkumi, qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub bo'lib 18 dan ortiq turga ega.Ularning hammasi yirik daraxt.Barcha turlaridan manzarali o'simlik sifatida foydalaniladi. Tabiiy xolda ular Yevropa va Osiyoda tarqalgan.

Ulmus pumila- Po'kak qayrag'och, qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 20 metrga yetadigan daraxt.Shox shabballari qizg'ish, qoramtir-qizg'ish yoki kulrang-yashil tukli.Barg yaprog'i 4-10 sm, eni 3-6 sm, tuxumsimon yoki teskari tuxumsimon.Barg tubining yarim dumaloq, yarim ensiz, uchi o'tkir, cheti arrasimon tishli. Mart- aprelda gullab, may oyida urug'laydi. Tabiiy holda Kavkazda tarqalgan.Yorug'likka talabchan, qurg'oqchilikka bardoshli.Urug'i bilan oson ko'payadi.Undan manzarali o'simlik sifatida foydalaniladi.U tuproqqa talabchan emas xar qanday sharoitda o'saveradi.

Ulmus dense- Sada qayrag'och.Bo'yi 30 m gacha yetadigan, tanasi sershox, shox-shabballari sharsimon yoki elipssimon. Barg yaprog'ining uzunligi 3-7 sm, eni 1,5-3 sm, tuxumsimon shaklda. Mart- aprel oylarida gullab urug'laydi.Tabiiy xolda O'rta Osiyoda tarqalgan.Manzarali o'simlik sifatida keng ko'lamda ekib o'stiriladi.

14. Maclura Nutt- Maklyura turkumi, tutdoshlar oilasiga mansub bo'lib, bir turga ega.

Maclura aurantika Nutt- Sariq maklyura.Bo'yi 20 m ga yetadigan daraxt.Shox-shabballari qalin tuxumsimon, po'stlog'i to'q qo'ng'irsimon, chuqur tilimli.Barglari oddiy 15 sm uzunlikda, barg qo'ltig'idan tikanlar chiqqan.Gullari yashil, to'pmevasi etdor, ko'ndalang kesimi 10-15 sm, sarg'ish oltin rangli, shakli yumaloq apelsinsimon.

Barcha qismlari ayniqsa to'pmevasi sut shirali. Aprel- may oylarida gullab, avgust-sentabr oylarida meva beradi. Mevasi chiroyli lekin yeb bo'lmaydi. Urug'I, qalamchasi va ildiz bachkisi yordamida ko'payadi. Tuproqqa uncha talabchan

emas.Yog'ochlik qismi emandan ham mustahkam. Manzarali o'simlik sifatida , shuningdek tirik devor hosil qilish maqsadida ekiladi.

15. *Morus*-Tut turkumi, tutdoshlar oilasiga mansub bo'lib, 5 turga ega. Shundan 4 turi Osiyoda, bir turi esa Amerikada tarqalgan. Ikki turi qadimdan Xitoy, Xindiston va O'rta Osiyoda turli maqsadlarda ekib kelinmoqda.Barglari oddiy, novdada navbatlashib joylashgan, sut shirali o'simlik.Guli boshhoqsimon to'pgul xosil qiladi, guli ko'rimsiz ikki uyli bazan bir uyli, ayrim jinsli o'simlik.Mevasi etli to'p meva.Mevalari istemolga yaroqli.Ularning turli shakllari manzarali o'simlik yoki ipak qurti uchun ozuqa shuningdek mevasi uchun ekib o'stiriladi.

***Morus alba*.** Oq tut.Bo'yi 15-20 m ga yetadigan daraxt.Barglari to'q yashil, gullari ko'rimsiz, to'pmavasi sersho'ra, urug'i mayda ying'oqcha.

Oq tutni 400 dan ortiq so'rtlari bor, ulardan ko'pchiligi bargi va mevasi uchun ekiladi. Oq tut tabiiy holda Xitoyda tarqalgan. U yashil bo'yoq beruvchi, dorivor, oziq ovqat va manzarali o'simlik sifatida ko'pchilikka ma'lum.

Morus nigra- Shoxtut.Bo'yi 7-8 m ga yetadigan daraxt.Po'sti qizg'ish-qo'ng'ir.Bargi butun, qalin, g'adir budir, bandi 2-3 sm, yaprog'I 8-15 sm uzunlikda. Eni 9 sm. Topmevasi 2-2.5 sm uzunlikda, qora yoki to'q binafsha rangli.Aprel oyida gullab mevasi iyunda yetiladi.Tabiiy xolda Eron va Avg'onistonda tarqalgan.U yaxshi shifobaxsh oziq-ovqat va manzarali o'simlik.

***Morus multicaulis* Perr.** Yapon tuti. Past bo'yli, barglari yirik,qalin,butun,yaltiroq va silliq,chetlari yirik tishli,barg bandi 3-6sm.Aprel oyida gullaydi,mevasi may iyunda yetiladi.Tabiiy xolda Yaponiyada tarqalgan. U manzarali o'simlik,lekin ko'proq bargi uchun ekiladi.Mevasi iste'molga yaroqli.

16.Broussonetia –Qog'oz daraxti turkumi.Tutdoshlar oilasiga mansub bolib,3 turni o'z ichiga oladi.Barcha turlari Sharqiy Osiyoda tabiiy xolda tarqalgan.Ular ikki uyli,gullari ko'rimsiz,boshhoqsimon to'pgulli,to'p mevalari etli,qirg'ish rangli o'simliklardir.Bularning hammasida sut shira bo'ladi.Mevasi tutni mevasiga biroz o'xshash lekin iste'molga yaroqsiz.



9-rasm. Tadqiqotchi sumaxning gullarini kuzatmoqda


Broussonetia parpyrifera vent-Qog'oz daraxti. Bo'yi 16m gacha yetadigan yirik daraxt yoki ba'zan buta. Barglari oddiy, ostki asos qismi yuraksimon, chekka qismi yaxlit yoki xar xil darajada qirqilgan, 5-20sm uzunlikda. Po'stlog'ining ichki tomonida tolalar qalin bo'lib mustaxkam joylashgan. Bu tolalardan Yaponiyada yapon qog'ozi tayyorlanadi. Tolalardan turli xil matolar to'qish maqsadida xam foydalanish mumkin. Tabiiy xolda u Xitoy va Yaponiyada tarqalgan. Qog'oz daraxt tola beruvchi va manzarali o'simlik.

17. *Platanus*-chinor turkumi, chinordoshlar oilasiga mansub bolib, 8 turni o'z ichiga oladi. Ular tabiiy xolda Shimoliy Amerika va O'rta yer dengizi atrofida tarqalgan. Bularning barchasi keng shox shabbali daraxtlardir. Bargi uzun bandli, barg yaprog'i panjasimon bo'lakli oddiy barg, gullari ko'rimsiz, bir jinsli bolib, sharsimon to'p gulag yig'ilgan. Mevasi yong'oqcha. Ularning xammasi turli kasalliklarga chidamli, tez o'sadigan manzarali o'simlik sifatida axamiyatlidir.

Platanus oreinthalis-sharq chinori. Bo'yi 20-30(50) m gacha yetadigan daraxt. Barglari 3-5 (7) bo'limli, yosh barglari tukli, keyinchalik tuksiz yoki kam tukli, mevasi yumaloq, dag'al tukli to'p meva. Bir bandda 2-7 ta to'p meva joylashgan, diametric 2.5 sm. Urug'i xamma tomondan qattiq tuk bilan o'ralgan.

Aprel oyida gullab mevasi sentabr oktabr oyida yetiladi. Tabiiy xolda Bolqon yarim orolida, Kichik Osiyoda va Echyay dengizi orollarida tarqalgan. Chinor uzoq umr ko'radigan, tez o'sadigan manzarali o'simlik. Uni Vodilda, Surxondaryoda, Chimkent viloyatining Sayram qishlog'ida saqlanib kelinayotgan chinor turlari 800-1000yil yashab kelayotgan va o'ta ulkan daraxtlardir. Lekin uning barglari yil davomida to'kilib, ko'ch va bog'larni umuman chinor ekilgan maydonlarni iflos qilib turishi va aprel oyida ayniqsa yoppasiga gullagan davrida gul changlari havoni shu qadar ifloslaydiki, nafas olganda ko'pchilik odamlarda turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi.

18. *Rosa*-Ra'nogul turkumi, ra'noguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, 400 turni o'z ichiga oladi. Uni hozirgi kunda 10000dan ortiq sortlari bor. Yovvoyi xolda o'suvchi turlarining guli qat-qat bo'lmaydi. Madaniy xolda ekiladigan sortlarining gulqo'rg'onlari qat-qat bo'lishi bilan ajralib turadi. Barglari toq patsimon, gullari



10-rasm. Tadqiqotchi shoyi akatsiya va gibiskus oldida

yakka-yakka yoki soyabonsimon, ro'vaksimon to'pgulli. Mevasi bir urug'li yong'oqcha. Yovvoyi turlarini urug'i bilan ko'paytiriladi va uning shoxlari atirgul uchun payvantag sifatida foydalanadi va shu tartibda atirgullar ko'paytiriladi.

Roso chinensis Jaca- Atirgul. Bu tur tabiiy holda uchramaydi. Ba'zan u ilashuvchi, ba'zan doimiy yashil ham bo'lishi mumkin. Po'stlog'I silliq, yashil rangli, yaltiroq, tikonchalari yakka-yakka lekin yirik. Guli yirik, qat-qat bo'lib joylashgan, rangi xilma-xil, oq rangdan to qizilgacha bo'ladi. Gullash may oyidan boshlanadi to kech kuzga qadar davom etadi. Atirgul xushbo'y hidli yoki hidsiz bo'lsada rang-barangligi, gulining yirik bo'lishi bilan hammani o'ziga jalb qiladi. Shuning uchun ham atirgul manzarali o'simlik sifatida hamma joyda ekiladi. Uni efir moyiga boy navlaridan tijbarglarini yig'ib murabbolar tayyorlanadi, efir moyi olish maqsadida ham foydalaniladi.

19 Albizziya durrazz- Albitsiya turkumi dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lib 25 turni o'z ichiga oladi. Bu turkum turlari shimoliy va janubiy yarim sharning tropic va subtropik qismida tabiiy holda tarqalgan. Guli ayrim jinsli. Qo'shgul qo'rg'onli, kosacha va tojbarglari 5 tadan, changchisi ko'p, tugunchasi ko'p sonli urug'kurtakdan iborat. Mevasi dukkak. Ularning deyarli barchasi shox-shabballari chiroyli, gullari rang-barang bo'lib, manzarali o'simlik sifatida axamiyatlidir.

Albizzia julibrissin Durrazz-ipak akatsiya. Bo'yi 8-10m ga etadigan daraxt. Barglari 2 marta patsimon juft murakkab, 7-28 juft burglar bor. Gullari sharsimon to'pgul xosil qiladi. Gullari oqish-sarg'ish, changchilari pushti rangli. Mevasi 7-15 sm uzunlikdagi dukkak. Iyun oyidan to sentabr oyiga qadar meva tugadi. Tabiiy holda Eronda, Kavkazda va Hindistonda tarqalgan. U eng go'zal, kasalliklarga bardoshli, xushmanzara o'simlik sifatida ko'p joylarda ekib o'stiriladi. Uhi quritilgan gulidan choyga qo'shish maqsadida foydalaniladi.

20. Cercis-Arg'uvon tuerumi, dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lib, 7 turni o'z ichiga oladi. Ular Yevropaning janubida, Osiyo va Shimoliy Amerikada tabiiy holda tarqalgan. Daraxt yoki daraxtsimon buta. Barglari oddiy yuraksimon yoki buyraksimon ko'rinishda bo'ladi. Gullari pushti yoki binafsha rangli bo'lib erta

bahorda gullaydi, eng yaxshi asal beruvchi o'simlik hisoblanadi. Gullari bargidan oldin hosil bo'ladi va butun tanasi, shox-shabballarini qoplab olgan gullari o'simlikni yanada xushmanzaraligini oshiradi. Ular qalamchalari vaurug'lari yordamida ko'paytiriladigan manzarali o'simlikdir.

Cercis siliquastrum- Oddiy qovoqmevali arg'uvon. Bo'yi 7-15mga yetadigan daraxt yoki yirik buta. Shox-shabballari sharsimon, po'stlog'i deyarli qoramtir. Barglari oddiy, yuraksimon yoki buyraksimon. Gullari 8-10 tadan bo'lib joylashgan, pushti binafsha rangli. Mevasi dukkak uzunligi 7-10 sm, eni 1sm. Aprel-may oyidan boshlab gullab, mevasi iyul-avgustda yetiladi. Tabiiy xolda o'rta yer dengizi regionlarida tarqalgan. U ajoyib manzaraga, moddalarga boy, asal beruvchi va bo'yoqbop o'simlikdir. Manzarali o'simlik sirtida ayrim joylarda ko'proq bog'larda ekib o'stiriladi.

Sgybinolobium (sopkora z)-Tuxumak turkumi. Dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lib, ga yaqin turini o'z ichiga oladi. Shundan 6-7 turi daraxt shaklida bo'lib, Amerika va Osiyoning tropic va subtropik qismida tabiiy xolda tarqalgan. Barglari yashil, to'q patsimon, gullari sarg'ish –yashil yoki oqish-yashil, och yashil, mevalari loviya mevasiga o'xshash dukkakmeva lekin uni chaynamaydi.

Styphinolobium yoki *sophora japonica* z. Yapon tuxumagi. Buni 10-30 metrgacha yetadigan, keng va dumaloq, shox-shabbali, to'q kulrang po'stloqli, novdalari tikonsiz, barglari toq patsimon murakkab, bo'yi 25-30 sm, burglar soni 9-17 tagacha yoki 5-7 juft bo'ladi. To'pgullari 20-30 sm. Ga yetadi. Guli och sariq. Tojbargining biri bayroqcha, 2 tasi qayiqcha, 2 tasi eshkak shaklidir. Mevasi 3-8 sm. Ga yetadigan dukkak. Iyuldan to oktabr oyigacha gullab, avgust – noyabir oylarida mevasi yetiladi. Tabiiy xolda Xitoy va Yaponiyada tarqalgan. U dorivor va manzarali o'simlik. Sirotida qadimdan ekib kelinadi. Shuningdek u bo'yoqbop o'simlikdir.

Robinia 1- Robiniya turkumi, dukkakdoshlar oilasiga mansub bo'lib, 20 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ular Shimoliy Amerika va Meksikada tabiiy xolda tarqalgan. Ular daraxt yoki buta ko'rinishida bo'ladi. Barglari to'q patsimon, murakkab barg, yon barglari ayrimlarida tikonchalarga aylangan. Gullari oq, pushti

yoki qizil bo`lib, to`pgullar xosil qiladi. Mevasi dukkak,tuksiz, chatnayzigan ko`p urug`li bo`yi 10 sm ga yetadi. Uning xamma turlari tez o`sadigan, qurg`oqchilikka bardoshli yorug`ni sevuvchi,tuproqqa uncha talabchan bo`lmagan, urug`i va ildiz bachkilar yordamida oson ko`payadigan o`simlik. Robinia pseudoacacia 1 –soxta akatsiya – oq akatsiya , bo`yi 25-30 metrga yetadigan keng-shox shabbalidaraxt.Barglarining uzunligi 25 sm. Bargchalar soni esa 7-9 juft. Guli oq shingil shaklidagi to`pgulga yig`ilgan.Dukkak mevasi tuksiz, uzunligi 10 sm Urug`i quruq joyda unuvchanligini 2-5 yilgacha saqlaydi.12 yilga qadar tez o`sadi., 70-80 (100) yilgacha yashaydi. Yog`ochligi juda mustaxkam, pishshiq undan stalbalar, shkallar tayyorlanadi. O`simlik gulidan asal efir moyi,bargidan bo`yoq modda,dag`al tola olish maqsadida foydalanish mumkin. O`simlik qurg`oqchilikka bardoshli bo`lgani uchun ixatazorlar xosil qilishda foydalanish mumkin. Soxta akatsiya gullaganda juda chiroyli manzara xosil qiladi.Shuning uchun manzarali o`simlik sifatida ko`plab ekiladi.Lekin xashorotlarga ayniqsa shiraga o`ta chidamsiz. Vatani Shimoliy Amerika .

Gleditschia-1 Gledichiya turkumi dukkakdoshlar oilasiga mansub bo`lib, 12 turni o`z ichiga oladi. Uning turlari Amerika , Sharqiy Osiyo va Afrikada tabiiy xolda uchraydi. Odatda tikonli bargi 2 marta qo`shpatsimon murakkab barg, guli ko`rimsiz biroz yashil , yaxshi asar beruvchi o`simlik. Gleditchia triacanthos – Tikon daraxti bo`yi to 40 metrgacha yetadigan daraxt. Shox shabbalari keng qilindirsimon. Mevasining uzunligi to 50 gacha , ko`proq buralgan xolda bo`ladi. Dukkak mevasi chorva mollari uchun yaxshi yem. Dorivor asal beruvchi va manzarali o`simlik . Gullash may oyida, mevalash iyun-iyul oylarida. Mevalarining yetilishi oktabr-noyabr oylariga to`g`ri keladi. Vatani Shimoliy Amerika.

Tikan daraxti xar xil tuproqli sharoitida tez o`sadi.Qurg`oqchilikka bardoshli bo`lganligi uchun tirik devorlar xosil qilishda ahamiyatlidir. Yog`ochlik qilish o`ta pishshiq chidamli bo`lganligi uchun stalbalar, shpallar tayyorlashda ishlatiladi. Shuningdek, uning mevasidagi shiralar istemonlga yaroqli shu bilan birga u shifobaxsh xadir.



11-rasm. Soxta kashtan

Aylanthus Desf – **aylant** turkumi. Simrubdoshlar oilasiga mansub, bo`lib , 15 turni o`z ichiga oladi, ular Janubiy Sharqiy Osiyoda tabiiy xolda uchraydi.

Aylanthus altissima swingle **bo`lgan aylant** – sasiq daraxt. Bo`yi 20-30 m.gacha yetadigan daraxt. Barglari murakkab 45-60 sm. Bunda 11-25 juft bargchalar joylashgan. Sasiq ko`langi xidli gullari 2 jinsli kosacha bargi 5ta , tosh bargi 5-6 ta. Yashil, sariq changchisi 10 ta.Tugunchasi 2-6 ta, meva barglardan iborat.Mevasi qanotli.May oyida gullab iyul-avgustda mevasi yetiladi.Manzarali osimlik.U yorug`lik va issiqlikni sevuvchi uzoq yashamaydigan (40 - 50) o`simlik tuproqqa talabchan emas. Ildiz bachkisi yordamida tez ko`payadi Va ko`p o`tmay aylantzorlarni xosil qiladi. Uning po`stlog`I va bargi shifobaxsh xususiyatga ega. (Dizinteriyaga qarshi.)U tuproq tanlamaydi.Shuning uchun uni dashtlarda ekib o`stirish yaxshi.Manzarali o`simlik sifatida xam ekiladi.

Evonymus – **L Beresklet** – **normushk turkumi**.Bereskletdoshlar yoki normushkdoshlar oilasiga mansub.220 turni o`z ichiga oladi. Uning turlari Janubiy va Shimoliy yarim sharda tarqalgan. 20 turi ekib o`stiriladi.Bular buta yoki kichik daraxt doimiy yashil o`simlik. Barglari oddiy ko`proq qarama – qarshi joylashgan. Gullari yaqqol ko`zga tashlanmaydi.Gullari to`plashib yarim soyabon shaklidagi to`p gullarnni xosil qiladi.Mevasi ko`sakcha qizg`ish rangli.

Evonimus Japonika – **Yapon normushki**. Bo`yi 6.5 8 m.gacha yetadigan doimiy yashil. Shoxlari 4 qirrali qo`ng`ir, guli oq yashil gul qismlari 4 tadan.Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-sentabr oylarida yetiladi. Tabiiy xolda Xitoy va Yaponiyada tarqalgan. Yil davomida yashil ko`rinish chiqarib turuvchi manzarali o`simlik. Ayniqsa tirik devorlar xosil qilishda ahamiyatlidir.Shuning uchun xam undan shu mqasadda keng foydalanib kelinmoqda.

Buxus – **Lshamshod turkumi** shamshodlar oilasiga mansub bo`lib, 30 turni o`z ichiga oladi. Ular O`rtadengizda Osiyoning Sharqiy va Janubiy qismida, Amerikada tarqalgan,shamshodning barcha turlari doimiy yashil. Kichik daraxt bo`lib, barglari qalin, yashil yaltiroq tuksiz bo`ladi. Gullari mayda kurtak qo`ltiqlarda xosil bo`ladi. Va sariq ranglidir. Mevasi 3 uyali kosakcha.

Buxus sempervirens 1- doimiy yashil shamshod. Bo'yi 2,6,7 metr yetdigan daraxt yoki buta. Bargi uzunchoq tuxumsimon , elipsimon, qisqa bandli kosakchasi 7,10 mm. Yumaloq tuxumsimon. Aprel oyida gullaydi.Mevasi avgustda yetiladi.Tabiiy xolda O'rta yer dengizida regionlarida tarqalgan yashil manzarali o'simlik.

Acer-Zarang turkumi, zarangdoshlar oilasiga mansub bo'lib,150 turga ega.Uning turlari Shimoliy va Janubiy yarim sharning o'rta mintaqali qismida tarqalgan.Turkumning 45 dan ortiq turi ekiladi.Bular daraxt yoki buta, barglariyaxlit, qarama-qarshi joylashgan yoki bo'lakli yoki murakkab patsimon.Gullari mayda ko'rimsiz, ro'vak shakldagi to'pgullar xosil qiladi.Mevasi ikki qanotli.

Acer platanoides-chinorbarg zarang. Bo'yi 30 m gacha yetadigan, bargaining uzunligi 5-18sm, eni 8-22sm, 5-7 bo'lakli.Yosh novdalari qizg'ish-sariq.To'pguli tuksiz.Mevasining uzunligi 5 sm gacha, yassi qo'sh qanotli.Aprel oyida bargdan oldin gul chiqaradi, avgust oyida mevasi yetiladi.Tabiiy xolda Yovropa va Markaziy Osiyoda tarqalgan.Chiroyli manzarali o'simlik.

Acer campestre-Dala zarangi. Bo'yi 10-12m gachayetadigan daraxt.Barglari yarmiga qadar yoki 2/3 qismigacha qirqilgan,eni 5-10sm,5-3bo'lakli,ustki qismi qoramtir yashil,orqasi oqish.Changlari gulqo'rg'on barglaridan biroz uzun.Yosh novdalari sarg'ish-qo'ng'ir.Aprelda gullab,iyundan avgustgacha mevasi yetiladi.Tabiiy xolda Rossiyaning Yovropa qismida,Kavkazda tarqalgan.Manzarali o'simlik sifatida ko'cha va bog'larda ekiladi.

Acer tataricum-Tatar zarangi. Bo'yi 10-12m gacha yetadigan daraxt.Barglari butun yoki uzunbir oz uch qismga ajralgan,chetlari notekiz,tuxumsimon yoki deyarli dumaloq,uzunligi 4-12sm,eni 2-8sm. Mevasi 2.5-4sm,yetilganda oq-pushti yoki oq-sariq, may oyida gullab,avgustda mevasi yetiladi.Tabiiy xolda ular Shimoliy Amerikada tarqalgan.Ko'p joylarda manzarali o'simlik sifatida ekiladi.u kasalliklarga ancha bardoshli o'simlik.

Aesculus-soxta kashtan turkumi,soxta kashtandoshlar oilasiga mansub bo'lib, 25 turga ega.Ular Shimoliy yarim sharda tarqalgan.Bular daraxt yoki buta,

barglari uzun bandli panjasimon murakkab barg. Gullari yirik,qiyshiq ro'vaksimon to'pgul xosil qiladi.kosabargi 5 ta,tojbargi 4-5 ta,changchisi 5-8ta,mevasi uch palla bo'lib ochiladi.

Aesculus hippocastanum-soxta kashtan.Bo'yi 25-30 mga yetadigan daraxt.Bargchalari 5-9 ta,o'troq teskari uzun nashtarsimon,chetlari tishli.to'pgul 20-30sm ga yetadigan o'simlik.Tojbargi oq,ko'sak mevasi dag'al tikan,1-2-3 urug'li.Aprel-may oylarida gullab,mevasi avgust-sentabr oylarida yetiladi.Vatani botqon yarim oroli.u shifobaxsh,chiroyli gulli o'simlik.Soxta kashtan kasaliklarga bardoshli,tez o'sadigan chiroyli shox-shabbalar xosil qiladi.Shuning uchun hozirgi paytda soxtakashtan manzarali o'simlik sifatida ko'plab ekiladi.

Zizyphus Mill-Chilonjiyda turkumi,chilonjiydadoshlar oilasiga mansub bo'lib,50 ga yaqin turni o'z ichiga oladi.Ular Shimoliy va Janubiy yarim sharning tropic va subtropik qismida tarqalgan.Bular daraxt yoki buta,ayrimlari doimiy yashil, qalin bargli bo'ladi.Guli ko'rimsiz,mevasi danakli,yaltiroq bo'ladi.

***Zizyphus jujiba* Mill.** Ulabi-Bo'yi 4-6(9)mga yetadigan daraxt yoki buta tikonli, qalin bargli, novdalari murakkab barg ko'rinishida bo'ladi. Bargi oddiy yaltiroq, gullari sarg'ish mevasi to'q qizil, 1-2(3) sm kattalikda, madaniylarida mevasi 5 sm gacha bo'ladi.May oyida gullab oktabr oyida mevasi yetiladi.Mevali, dorivor hamda manzarali o'simlik.Manzarali o'simlik sifatida bog'larda ekiladi, vatani O'rta Osiyo, Kavkaz.

Tilia-Juka (lipa) turkumi jukadoshlar oilasiga mansub bo'lib 45 turga ega. Uning turlari Shimoliy yarimsharning o'rta mintaqasi va Subtropikrayonlarida tarqalgan. Bular bo'yi to 40 mgacha yetadigan daraxt.Bargi oddiy, ko'proq tishli, guli mayda, xushbo'y hidi, mevasi yong'oqsimon.

Tilia platyphyllos scop- Yirik bargli Juka. Bo'yi 30 mga yetadigan po'stlog'I kulrang yosh novdalari esa qizg'ish jigarrang bo'lib, yasmiqchalari mayda, bargi yirik 7-12 sm uzunlikda, mevasi 1,1 sm uzunlikda qalin tukli, U Yevropada tabiiy holda tarqalgan. Jo'ka eng uzoq umr ko'radigan, tez o'sib chiroyli shox-shabba xosil qiladigan, yaxshi asal beruvchi manzarali o'simlik. Manzarali o'simlik sifatida bog' va ko'chalarga ekiladi.



12-rasm. Bo'ychan aylantning umumiy ko'rinishi

Hibiscus-Boritaroq turkumi, gulhayridoshlar oilasiga mansub bo'lib 250 dan ortiq turni o'z ichiga oladi, ularning ko'pchiligi tropic o'lkalarda tarqalgan.Uning daraxtsimon 3 turi manzarali o'simlik sifatida keng ko'lamda ekib kelinmoqda.Ular oddiy bargli gullari yirik xar-xil rangli o'simliklardir.

Hibiscus syriacus- Suriya bo'ritarog'i, bo'yi to 5-6 m ga yetadigan buta o'simlik bo'lib, bargini uzunligi 5-10 sm, gulqo'rg'oni ko'p, qat-qat bo'lib joylashgan yoki tojibarg 5 ta yirik, oq pushti, sariq binafsharang, kosachabarglardan 2-3 marta uzun. Iyun, Sentabr oylarida gullab mevalaydi. Tabiiy holda u Xitoy va G'arbiy Osiyoda tarqalgan. Uning gullari rang barang chiroyli bo'gani uchun ko'p joylarda manzarali o'simlik sifatida ekib o'stiriladi.

32. Fraxinus- Shumtol turkumi, zaytundoshlar oilasiga mansub bo'lib, 60 dan ortiq turni o'z ichiga oladi, ular asosan o'rta mintaqali zonada tarqalgan.Barglari toq patsimon murakkab bo'lib,novdada qarama-qarshi joylashgan, ba'zan xalqasimon bo'ladi.Gullari ko'proq ko'rimsiz, ro'vaksimon to'pgulli, mevasi bir qanotli yong'oqcha.

Praxinus excelsior-Oddiy shumtol.Bo'yi 30-40 m ga yetadigan daraxt.Bargchalari 7-13(15) ta.Mevalari to'g'ri,tepa qismi biroz o'yilgan,bir qanotchali,uzunligi 3-4sm,eni 0.5-1 sm.Mart- aprel oylarida gullab,sentabr-oktabr oylarida mevalari yetiladi.Tabiiy xolda Rossiyaning Yovropa qismida, Kavkazda tarqalgan.

Fraxinus pensyneranica-Qora shumtol. Bo'yi 15-25 m gacha yetadihan daraxt,novdalari sertuk, bargchalari 5-9 ta,deyarli o'yiqroq,cho'ziq nashtarsimon,tuxumsimon nashtarsimon, chetlari butun yoki to'mtoq tishli,mevasining uzunligi 4-4.5 sm,qanotchali,yuqori qismi o'tkir tishli yoki uchi o'yilgan, urug'lari 2-2.5 sm. Gullash mart-aprel ,mevalash sentabr-oktabr oylariga to'g'ri keladi.Vatani Shimoliy Amerika.Chiroyli manzarali o'simlik.

Ligustrum-ligustrum turkumi, zaytundoshlar oilasiga mansub bo'lib, 50ga yaqin turni o'z ichiga oladi.Tabiiy xolda asosan Sharqiy Osiyo va Avstraliyada tarqalgan.Bular doimiy yashil yoki bargini mavsumiy to'kuvchi buta yoki kichik

daraxt. Barglari oddiy, qarama –qarshi joylashgan, gullari mayda, ro'vaksimon to'pgulli mevasi rezavor, yaxshi asal beruvchi o'simlik.

Ligustrum vulgare-oddiy ligistrum. Bo'yi 2-3(5)mga yetadigan buta bo'lib, barglari nashtarsimon, tekiz qirg'oqli, yaltiroq, bo'yi 3-6sm. Gullari qo'sh jinsli, ro'vaksimon to'pgulli, uzunligi 4-8sm, oq xushbo'y xidli, kosacha va tojbargi 4tadan, changchisi 2 ta, mevasi sharsimon qora rezavor. May-iyun oylarida gullab, avgust-sentabrda mevalar yetiladi. Vatani Kavkaz, yaxshi asal beruvchi manzarali o'simlik. Ko'proq jonli devorlar va turli shakllar xosil qilishda undan foydalaniladi.

Cotalpa scop-katalpa turkumi, bignoniyadoshlar oilasiga mansub bo'lib, 10ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ular Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyoda tabiiy holda uchraydi. Katalpa daraxt, ba'zan buta bo'lib, barglari oddiy yirik, yaxlit yoki bo'lingan bo'ladi, gullari yirik, shingilsimon yoki ro'vaksimon to'pgul xosil qiladi. Mevasi uzuningichka, silindrsimon ko'sakcha.

Catalpa speciosa Ward-Go'zal catalpa. Bo'yi 30mgacha yetadigan daraxt. Tana po'stlog'i qizg'ish qo'ng'ir. Bargi 20-30sm uzun, keng. Gullari oq, mevasi 20-45(50)sm uzunlikda, eni 1,5sm. Urug'i uzun tukli. May-iyun oylarida gullab, mevasi avgust-sentabr oylarida yetiladi. Vatani Shimoliy Amerika. Yirik va chiroyli gulli ajoyib manzarali o'simlik, bog' va ko'chalarda ekiladi.

Cotalpa bignonioides Ward-Bignonyasimon catalpa. Bo'yi 6-8mgacha yetadihan daraxt. Barglari 10-30sm, keng tuxumsimon, barg bandlari 16smgacha. Gullari oq. Mevasi ko'sakcha, 20-35(40)sm. May-iyun oyida gullab, avgust-sentabr oylarida mevasi yetiladi. Vatani Shimoliy Amerika. Bu turi xam chiroyli gulli ajoyib manzarali o'simlik. Lekin bargi yoqimsiz xidli bo'ladi.

Forsythia Vahl – forzitsiya turkumi zaytundoshlar oilasiga mansub bo'lib, 6 ta turni o'z ichiga oladi. Uning 5 ta turi Sharqiy Osiyoda, 1 ta turi Yevropada tarqalgan. Barglari qarama-qarshi joylashgan buta o'simlik bo'lib, bahorda mo'l gullar hosil qiladi. Ko'pchiligini guli barg hosil bo'lgunga qadar hosil bo'ladi. Gullari sarg'ish oltin rangli. Qalamchalari yordamida oson ko'payadi.



13-rasm. Qog'oz daraxti



14-rasm. Gledichiyaning yetilmagan mevali shoxi

Forsythia suspensa (Thunb) Vahl – osilgan forzitsiya. Bo'yi 2-3 metrgacha yetadigan, shox-shabballari egilib o'suvchi yoki yer bag'irlab o'suvchi buta. Barglari uch bargchali yoki uch burchakli, ba'zan yaxlit bo'ladi. Uning tur xillari, gibridlari ko'p, ularni bir biridan ajratish ham ancha qiyin. U birmuncha sovuq iqlimga bardoshli. Shuning uchun ham manzarali o'simlik sifatida keng ko'lamda ekilmoqda. Uning sarg'ish-oltin rangli to'pguli so'zsiz barchani o'ziga maftun etmoqda.

Suringa L – Siren turkumi zaytundoshlar oilasiga mansub bo'lib, 30 ga yaqin turini o'z ichiga oladi. Uning turlari asosan Osiyoning Sharqiy va Markaziy qismida tarqalgan. Ular buta yoki kichikroq daraxt. Barglari oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan deyarli yaxlit, ko'p sonly xushbo'y hidli gulli. Gullari ko'pchilik hollarda qat-qat bo'lib joylashgan. Mevasi ko'sak. Ular qalamcha yordamida, tuplarini ajratish yo'li bilan ko'paytiriladi. Uning ko'plab sortlari yaratilgan va keng ko'lamda ekib o'stiriladi.

Suringa Vulgaris L – Oddiy siren. Bo'yi 5-7 (9) metrgacha yetadigan daraxt yoki yirik buta. Bargi tuxumsimon oddiy barg. Gullari juda xushbo'y hidli. Yog'ochlik qismi qizg'ish qo'ng'ir, juda qattiq va og'ir bo'ladi. O'ta yorug'lik sevuvchi qumli mtuproqda qo'shimcha o'g'it talab qiliuvchi o'simlik.

Suringa indiea – Hind sireni. Bo'yi 2-3 metrgacha yetadigan, barglari oddiy, poyada ketma-ket joylashgan yaxlit bargli buta. Ko'p belgilari bilan oddiy sirenga o'xshash, lekin gullash davri bilan farqlanadi. Gullash iyul oyida, mevalash avgust oyida kuzatiladi. Gulari juda mo'l pushti rangli bo'lib, uzoq vaqt gullab turadi. Ajoyib manzarali o'simlik, lekin uning turlari juda kam saqlanib qolgan. Universitet hovlisida bir tupgina bor holos. Muhofazafaga muxtoj.

Jasminium L – Yasmin turkumi zaytundoshlar oilasiga mansub bo'lib, 200 ga yaqin turini o'z ichiga oladi, shundan 8 ta turi introduksiya qilingan. Ular tik o'suvchi yoki ilashib o'suvchi buta bo'lib, barglari toq patsimon yoki oddiy bo'ladi. Yasmin turkumining asosiy qismi tropik iqlimga yaqin bo'lgan o'lkalarda – Qrim, Kavkaz orti va Turkmanistonda tarqalgan. Gullari qo'ng'irsimon yoki

naychali, rangi esa hilma xil ko'rinishda bo'ladi. Xushbo'y hidli bo'lgani uchun efir olish maqsadida foydalaniladi.

***Jasminium fruticans* L** – Sambukus turkumi. Shilvidoshlar oilasiga mansub bo'lib, 40 ga yaqin turini o'z ichiga oladi. Ular Janubiy va Sharqiy yarimsharni o'rta mintaqali iqlimiga ega bo'lgan qismida tarqalgan. Turkumga mansub turlar buta yoki daraxt bo'lib barglari toq patsimin murakkab, poyada qarama-qarshi joylashgan gullari mayda, siyabonsimon to'pgulli mevasi rezavorsimon, 3-5 urug'li.

***Sambikus nigra* L** – Marjon daraxt. Bo'yi 6-8 metrga yetadigan buta yoki daraxt. Barglari 25-30 sm bargchalari (3) 5-7 (9) ta, uzunligi 12 sm eni 6 sm. Tojbargi oq-sariq, mevasi rezavor, yaltiroq, qoramtir, sharsimon.

May oyida gullaydi, mevasi sentabr oyida yetiladi. Vatani Garbiy Yevropa, Kavkaz. Yaxshi manzarali o'simlik uni faqat bir turi universitet hududida saqlanib qolgan holos, muhofazaga o'ta muxtoj. Qalamchasi bilan ko'payadi va tez o'sadi.

***Lanikira* L** – Shilvi turkumi, shilvidoshlar oilasiga mansub bo'lib, 200 dan ortiq turga ega. Ular asosan Shimoliy yarimsharda tarqalgan barcha turlarining barglari oddiy, yaxlit, qarama-qarshi joylashgan yashil o'simlik. Gullari naysimon – voronkasimon tojbargli, barg qo'ltiqlarida juft-juft bo'lib joylashgan. Ilashuvchi turlarining to'pgullari ro'vaksimon yoki boshoqsimon, mevasi etli rezavor.

***Lanikiratoforica* L** – Tatar shilvisi. Bo'yi 2-3 metrga yetadigan bargi yuraksimon o'ymali, bo'yi 3-6 sm osti kulrang yashil, guli pushti, xushbo'y hidli. Mevasi qizil yoki sariq, achchiq iste'molga yaroqsiz. May-iyun oyida gullaydi. Iyul sentabr oylarida mevasi yetiladi. Vatani Rossiya, Yevropani Janubi va O'rta Osiyo. Manzarali o'simlik lekin uni bir turi saqlanib qolgan edi. Afsuski hozir universitet hududida yo'q.

***Diospyros* L** – Safsan hurmo turkumi, hurmodoshlar oilasiga mansub bo'lib, 200 ga yaqin turni o'z ichiga oladi uning turlari asosan Osiyoning Sharqiy janubidagi Tropik va Subtropik qismida tarqalgan ular daraxt yoki buta o'simliklar. Ayrımlari doimiy yashil. Bir uyli yoki ikki uyli, tojbrglari qo'g'iroqsimon yoki naysimon, mevasi etli, 2-10 urug'li rezavor. Bargi 8-16 sm, yalyiroq, osti tukli,

guli oqish, hidsiz, mevasini eni 8sm sariq, shirin. May-iyun oylarida gullaydi. Oktabr oylarida mevasi yetiladi. Vatani Yaponiya – Xitoy. Mevali va manzarali o'simlik.

Diospyros Vergiana L – Virgin xurmosi. Bo'yi 20-30 metrga yetadigan daraxt. Guli mayda sarg'ish – yashil mevasining eni 2-3 sm sariq, pishganda qoramtir ko'k, iste'molga yaroqli. May-iyun oyida gullaydi. Oktabr-noyabr oyida mevasi yetiladi. Vatani Shimoliy Amerika. Hasharotlarga chidamli mevali va yaxshi manzarali o'simlik. Universitet hududida bir tupi saqlangan, muhofazaga muxtoj.

Diospyros kaki L – Sharq xurmosi. Buyi 15m gacha yetadigan daraxt. Bargi 8-16 sm uzunlikda , etli, yaltiroq, ostki qismi sarg'ish tukli. Vatani Xitoy-Yaponiya. U mazali meva beruvchi va manzarali o'simlik sifatida ahamiyatlidir.

Buddleia L – Buddley turkumi langaniyadoshlar oilasiga mansub bo'lib, 100 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Uning turlari tropik, subtropik, qisman o'rta mintaqaning Osiyo, Amerika, Janubiy Afrika qismlarida tarqalgan. Barglari qarama-qarshi joylashgan buta, oqish qalin tukli, gullari ko'p boshhoqsimon shingil to'pgulli, mevasi ko'sakcha. U -20 sovuqqa bardosh bera oladi, chiroyli gulli, yoqimli manzarali o'simlik. Universitet hovlisida 4 tupi, o'stirilmoqda. U urug'i va qalamchasi orqali ko'payadi. Tez o'sadi 2-3 yoshidan boshlab gullaydi va meva beradi. Yaxshi asal beruvchi o'simlik.

Buddleia Davidii Franch – Dahidi budllayi bo'yi 5 m gacha yetadigan buta, gullari yaxshi asal beruvchi, binafsha rangli. Yaxshi manzarali. Koelreuteria – Kelreyteriya turkumi, sapindadoshlar oilasi. Turkumning 7 turi bo'lib, ular Sharqiy Osiyoda tarqalgan.

Koelreuteria panikulata L – Sovun daraxti. Bo'yi 10m ga yetadigan daraxt. Gullari sarg'ish, mayda, ro'vaksimon to'pgulda yig'ilgan. Yo'pgulning bo'yi 40 sm ga yetadi. Mevasi ko'sak mevasi pufakchali, bo'yi 5 sm. May-iyun oylarida gullab, mevasi oktyabr-noyabr oylarida yeyiladi. Vatani Xitoy-Yaponiya, manzarali o'simlik.

***Vitex* L** – Maryam daraxti turkumi, tizimguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, 60 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Bular kichik daraxt yoki buta. Bargi qarama-qarshi joylashgan. O'tkir hidli, gullari gullari chala soyabon yoki ro'vaksimon to'pgullar hosil qiladi.

***Vitex agnus castus* L** – Maryam daraxti. Bo'yi 4-6 (10) metrgacha yetadigan buta yoki daraxt. Shoxlari to'rt qirrali barglari panjasimon, murakkab, 5-7 bargchali gullari doira yoki halqa hosil qiluvchi chala soyabonlarda joylashgan. Tojbargi varaqasimon nay hosil qiladi, binafsha, ko'k yoki oqish. Iyun-oktabr oylarida gullab urug'laydi.

Chiroyli gulli manzarali o'simlik. Uning mevasi murch tayyorlashda ishlatiladi. Universitet hududida bir tup o'smoqda muhofazaga muxtoj.

***Magnoliya* L** – Magnoliya turkumi, magnoliyadoshlar oilasiga mansub bo'lib, 70 ga yaqin turni o'z ichiga oladi. Ular Shimoliy Amerika va Sharqiy Osiyoda tarqalgan. Magnoliya turlari daraxt yoki buta bo'lib, barglari yirik, yaxlit holda bo'ladi. Gullari ham yirik xushbo'y hidli, mevasi bargchalar yig'indisidan iborat qubbasimon bo'ladi. Ko'payishi urug', qalamcha va payvand yordamida boradi. Barglarining chiroyliligi, guli va mevasining o'ziga xosligi bilan manzaralilik darajasi eng yuqori hisoblanadi.

***Magnoliya grandiflora* L** – Yirik gulli magnoliya, doimiy yashil, bo'yi 30 metrga yetadigan daraxt. Bargi 12-25 sm uzunlikda, qalin, osti zangsimon rangli, guli oq sutsimon, juda yirik 17-22 sm, xushbo'y hidli. O'ta manzarali, qishga bardoshli. Shimoliy Amerikada tarqalgan. Bog'larda manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Bargi, guli va yosh novdalaridan efir moyi olishda foydalanish mumkin.

***Liriodendron* L** – Lola daraxti turkumi, magnoliyadoshlar oilasiga mansub bo'lib, 2 turi Xitoyda va Shimoliy Amerikada tarqalgan. Ular daraxt, po'stlog'i chuqur tilimli pushta. Bargi 4-6 bo'lakli, uchki qismi o'yiqli, osti yuraksimon, guli oq yashilsimon. Mevasi qanotchalar yig'indisidan iborat qubbasimon.

***Liriodendron tulipifera* L** – Lola daraxti bo'yi 50-60 metrga yetadigan, tuxumsimon shox-shabbali, tanasi tik diametric 3-3.5 metr, po'stlog'i kulrang yoki qo'ng'ir qizil. Bargi ochiq yashil, yaltiroq, 12-15 sm uzunlikda. Guli kosachasimon

diametric 6 sm ga yaqin. Urug'i yordamida ko'payadi, tez o'sadi. Chiroyli manzarali o'simlik. Ko'proq bog'larda xiyobonlarda o'stiriladi.

Yulg'un-Tamarix L – yulg'undoshlar oilasiga mansub, bo'yi 3-4 (6-15) metrga yetadigan buta, ba'zan esa daraxt shaklida o'suvchi bir qancha turlari bor. O'zbekiston florasida uning 12 ta turi uchraydi. Turkum turlari tabiiy hamda O'zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydi ular daryo sohillarida, ko'l atrofida sho'rlik va taqir joylarda, qum bosgan tepaliklarda atto bo'yi 10 metrga qadar qumtepaliklarda keng tarqalgan. Qumli va qum bosgan joylarda kuchli tarmoqlangan yonildizlar hosil qiladi, ulardan esa qo'shimcha ildizlar hosil bo'lib, o'simlikni suvga bo'lgan ehtiyojini to'la to'kis qoplay oladi. Yer osti suvi 2-3 metr chuqurlikda joylashgan bo'lsa bunday sharoit yulg'unlar uchun qulay hisoblanadi, lekin grunt suvi 10 metr chuqurlikda bo'lsa ham ular yashayveradi. Chunki ularning ildiz sistemasi yer ostki va yon tomonlar kirib kuchli rivojlangan bo'ladi. Ular o'zgaruvchan muhit sharoitiga tez moslasha oladi. Yulg'unlar yaxshi bo'yoq beruvchi, gullari shiraga boy oshlovchi moddalarga boy bo'lishi bilan birga yaxshi manzarali o'simlik sifatida ham ahamiytlidir. Ular tuproq va namga unchalik talabchan emas. Shuning uchun har xil muhit sharoitida o'sa oladi. Gullari pushti rangda bo'lib, ularni bahor oylaridan to kech kuzga qadar guli shox-shabbalarini kuzatish mumkin.

Yulg'undan qadimdan Osiyo va Yevropa xalaqlari teri oshlashda foydalanib kelishmoqda. Uning yashil novdalari tarkibida 9-14% gacha, yog'ochlik qismida 6% gacha va mevalarida 15% gacha oshlovchi moddalar bo'ladi. Hozirgi kunda yana undan ixota va manzarali o'simlik sifatida foydalanib kelinmoqda.

Totim-Rihis L. Bu turkum 150 ga yaqin turga ega bo'lib, uning bir turi O'zbekistonda tabiiy holda ucharydi. U pistadoshlar anacardceae oilasiga mansub, bo'yi 1-3 (5) metrgacha yetadigan daraxt yoki buta. Barglari toq patsimon, uzunligi 15-18 sm. Barglari tukli, bandsiz, cho'ziq tuxumsimon yoki nashtarsimon, chetlari yirik qo'ng'ir aralashsimon. Gullari ro'vakda joylashgan, changchi va urug'chi gullari alohida-alohida ro'vaklarda joylashgan bir uyli aydin jinsli, changchisi 5-10

ta. Mevasi sharsimon, shirali, O'zbekistonda Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog'li tumanlarida tarqalgan.

Totem bargidan olingan tanit moddasidan tibbiyotda, vinochilikda, to'qimachilikda ishlatiladi. Uning barg va novdalaridan qora, mevasidan qizil, ildiz po'stlog'idan jigarrang bo'yoq olinadi. Shuningdek uni shox-shabballari, barg va to'pgullari o'ziga xos fayzli, yoqimli bo'lgani va hildagi tuproqda o'sa olgani uchun undan ixotazorlar barpo qilishda foydalanadilar, manzarali o'simlik sifatida ekib o'tirilmoqda. Urug'i, to'nka va ildiz bachkilari bilan ko'payadi. Ayniqsa kuzda bargaining ochiq va tiniq rangda bo'lishi ko'pchilikni o'ziga jalb qiladi.

4.2. Noyob va istiqbolli turlari va ularni muhofaza qilish.

Olib borilgan kuzatishlar asosida yuqorida bayon qilingan ma'lumotlarga ko'ra ekib o'stirilgan manzarali daraxt va butalarning bir qismi, keyingi 30-40 yil davomida turli sabablarga ko'ra yo'q bo'lib kedi. Bular qatoriga bundik, tukli akatsiya, do'lana, sovun daraxti, Kanada teragi, qizil, qatrong'i, maklyura, katalka, tikoma, chetancha, piramidasimon kiparis va boshqalarni kiritish mumkin. Lekin keyingi 15-20 yil davomida yo'qolgan manzarali daraxt va butalarni o'rnini bosadigan o'simliklar bilan to'ldirildi. Bular qatoriga lola daraxti, ginkgo biloba, virgin archasi, qrim qarag'ayi, qora qarag'ay, magnoliya, marjon daraxti, maryam daraxti, juka, eman, g'ayri kashtan, farzitsiya, balsam teragi, verba toil, Amerika teragi va boshqalarni kiritish mumkin.

Bog'ni rang-barang manzarali o'simliklar bilan boyitish jarayoni davom etmoqda. Universitet hududi keyingi 5 yil davomida ekilgan manzarali o'simliklar hisobiga ancha boyidi va ko'rkiga ko'rk qo'shildi. Ayniqsa minglab tup ekilgan atirgullar hudud manzarasini yanada go'zallashtirdi. Har bir inson charchaganda sayr etib hordiq chiqaradigan darajada gulzorlar barpo qilindi. Albatta bu ijobiy ishlarning hammasi universitet rahbariyatini hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishga alohida etibor natijasi deyishimiz mumkin.

Bog'da kamyob, viloyatimizni boshqa shaharlaridagi bog' va hiyobonlarida uchramaydigan ajoyib manzarali o'simliklari ham mavjud. Ular albatta muhofazaga muxtoj. Shunday ajoyib o'simliklar jumlasiga Ginko biloba (uni faqat bir turi mavjud), magnoliya (bu ham bir tup nihol holida), lola daraxti (ikki tupi mavjud), maryam daraxti (ikki tup nihol ko'rinishida), juka (lipa – ikki turi), grab (uni faqat bir tupi nihol holida), farzitsiya (ikki tupi bor), budlayi davlida (ikki tupi bor), virgin xurmosi (faqat bir tupi saqlangan, ancha keksa o'simlik), marjon daraxti (bir tupi saqlangan), Xind sireni (bir tupi bor), chetanga (bir tupi qolgan), verba toli (uch tupi qolgan) shu hildagi kam saqlangan keksa yoki yangi o'tqazilgan noyob manzarali daraxt va butalar soni anchagina bor. Bu noyob, chiroyli, ko'rkam o'simliklarni saqlash, ularni ko'paytirish va muhofaza qilish shu kunning birinchi galdagi vazifasi bo'lmog'i lozim. Ularni kesish faqat universitet rektori ko'rgazmasi va viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining mutaxassislari ruxsati hamda shahar hokimining qarori asosida amalga oshirilishiga rioya qilinishi lozim. Shundagina shahr bog'idagi, universitet hududidagi noyob manzarali daraxt va butalar saqlanib qoladi. Asrlar osha yashab kelayotgan universitet hududidagi chinorlar singari ular ham hozir qanday bo'lsa, shu hildagi yashnagan ko'rinishda kelgusi avlodga saqlanadi. Bularni saqlash va muhofaza qilishda nafaqat bog'bonlar, balki to'liq universitet ahli bir tan-bir jon bo'lib faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Shundagina universitet hududi keyingi yillar davomida yil sayin go'zallashib boradi va bog'u bo'stonlarga aylanadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda istiqbolli manzarali o'simliklarni (lola daraxti, magnoliya, juka, grab, g'ayri kashtan, eman, buk, oqqayin, virgin xurmosi, marjon daraxti, qora qarag'ay, Qrim qarag'aryi, virgin archasi, oq qarag'ay, ginko biloba, farzitsiya, jasmine, atirgul tur va navlari, xind sireni, chetanga va boshqalar) guli, hsox-shabbalari, doimiy yashilligi, umumiy qiyofasi, turli kasalliklarga bardoshliligi bilan ajralib turadi. Bular manzarali o'simliklar orasida eng yoqimli xush manzaraliligi bilan odamlarni o'ziga maftun etadi. Shuningdek manzarali o'simliklarni tanlay bilish, ular ko'paytirish va parvarish qilish uslublarini o'rgangan holda ish yuritish talab etiladi. Shundagina shahr bog'i yil

sayin yashnab, go'zallashib boraveradi. O'ylaymizki, bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun hamma imkoniyatlar mavjud. Faqat undan unumli foydalanish talab etiladi holos.

XULOSA

Bog' hududidagi manzarali daraxt va butalarni kuzatish, tekshirishlar olib boorish va to'plangan materiallarni qayta ishlash va taxlil qilish natijasida quyidagi hulosaga kelindi.

1. Bog' hududida o'stirilayotgan daraxt va butalarni floristik tarkibini o'rganish natijasida bu hududda 31 oilaga mansub, 7 turkum, 60 tur o'sayotganligi ma'lum bo'ldi.

2. Ularning gullarini katta-kichikligi, rangi tahlil qilinganda 27 tur ko'rimsiz gulli, 24 turi mayda 7 turi doimiy yashil, 7 turi oq gulli, 6 turi sarg'ish, 5 turi gulsiz, 4 turi pushti gulli ekanligi aniq bo'ldi. (eslatma: gulsiz va doimiy yashil o'simlik turlari aslida ko'rimsiz gulli)

3. Hayot shakllari va foydali xususiyatlarini o'rganish asosida 58 turdan 50 turi daraxt, 7 turi buta o'simliklar, 18 turi shifobaxsh, 11 turi efir moyli, 10 turi tolali, 9 turi oshlovchi moddali, 10 turi bo'yoqbop o'simliklar ekanligi ma'lum bo'ldi.

4. Bog' hududidagi manzarali daraxt va buta o'simliklarning soni va turlar bo'yicha taqsimlanishi hisob qilinganda manzarali daraxt va butalarning soni 4900 tup ekanligi, shundan 2900 tupi daraxt, 2000 tupi butalar ekanligi aniqlandi.

5. Tarqalish markazini taxlil qilish natijasida eng ko'p tur Xitoy-Yaponiyadan (15 tur), Shimoliy Amerikadan (12 tur), Kavkaz va Qrimdan (7 tur), Yevropadan (16 tur), O'rtayer dengizi atrofidan (5 tur) keltirilganligi aniq bo'ldi.

6. Bog'da ro'yhatga olingan manzarali daraxt va butalarni bioekologiyasi, foydali xususiyatlari va manzara hosil qilish oylari o'tganildi va aniqlik kiritildi.

7. To'plangan materiallarni qayta ishlash asosida ro'yhatga olingan turlar uchun oila, turkum va tur aniqlagichi tuzildi.

8. Kuzatishlar asosida bog'da dastlab ekilgan noyob o'simliklardan kiparis, bunduk, qizil, Kanada teragi, mognoliya, lola daraxti, qatrong'i, tukli akatsiya, jumrut kabi qator o'simliklar yo'qolib ketganligi aniqlandi. Shuningdek

ular o'rnini bosa oladigan qora qarag'ay, maryam daraxti, juka turlari, forzitsiya kabi manzarali o'simliklar ekib o'stirilayotganligi ma'lum bo'ldi.

9. Yo'qolgan turlarni qayta tiklash va yangi manzarali o'simliklar bilan boyitish shu kunning talabi deb hisoblaymiz.

10. Manzarali o'simliklar tarkibini noyob, istiqbolli, chiroyli gulli yoqimli shox-shabbali, tashqi qiyofasi bejirim, doimiy yashil, kaslliklarga bardoshli o'simliklar hisobiga boyitish lozim deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 21 b
2. A.X.Xamidov va boshqalar O'zbekiston o'simliklarini aniqlagichi T. 1987.
3. K.Z.Zokirov O'rta Osiyo o'simlik oilalarini aniqlagichi T. 1963.
4. K.Z.Zokirov va boshqalar Botanikadan ruscha-o'zbekcha entsiklopedik lug'at T. 1973.
5. K.Z.Zokirov va boshqalar Ruscha-o'zbekcha botanik terminlarni lug'ati T. 1963.
6. M.M.Nabiyev va boshqalar Определитель деревья и кустарники Узбека М. 1975.
7. M.N.Nabiyev va boshqalar Farg'onaning noyob asriy daraxt va butalari T. 1960.
8. O'.P.Pratov va boshqalar. Botanika 2010 yil.
9. S.S.Saxobiddinov Gulli o'simliklar sistematikasi T. 1966.
10. S.Xoliqov va boshqalar o'simliklar aniqlagichi T. 1970
11. A.A.Качалов Деревья и кустарники М. 1970.
12. A.B.Гурский Декоративное озеленение железных дорог СССР М. 1935.
13. A.И.Колесников Декоративное дендрология Госетрой изди М. 1960.
14. A.Л.Лапа Определитель деревьев и кустарник Киев. 1957.
15. A.М.Лапин Определитель растений Тош-го озиса Т. 1941.
16. A.Н.Строгий Деревья и кустарники Даль.го Востока М. 1934.
17. A.П.Тахтаджян Система магнолиаритов Л.
18. Б.В. Граздов Дендрология. Голесбумиздит М, 1952.
19. В.Д.Дмитриев Состав, биология в современное состояние аргевников Узбека Т. 1938.
20. В.П.Дробов Лесосади Ср.Азии Т. 1936.
21. Г.И.Лебедев Акклиматизация деревских и кустарниковых паред М. 1953.
22. Г.Н.Шлыков Интродукция растений М.Л. 1964.
23. Деревья и листва I-VI том Сездево АН СССР М. 1942-1962.
24. Е.В.Эггерс Каркас-Маклюр Деревья и кустарники Ник бот.сад. 1948.
25. Жизнь растений 1987. IV-VII том М. 1978-1980
26. Л.Н.Назаренко Определитель деревья и кустарники Тош. Обл. 1973.
27. М.Е.Ткаченко Озеленянии городов Гослесиздат. 1935.
28. М.М.Арифхонова Растительность Ферганской долины Т. 1967.
29. О.Н.Коровика и др. Иллюстрированный определитель. Высших растений Т. 1983.

30. Определитель растений Ср. Азии I-VII том Т. 1968-1993
31. П.И.Лапин Деревья и кустарники Никатский бот.сад. Л. 1948.
32. Ф.Н.Русанов Деревья и кустарники бот. сада А.К.Наук Узб. 1955.
33. Флора Узбекистана Т. 1991-1962
34. Х.О.Охунов Определитель деревья и кустарники Узб-а М. 1991.
35. Э.Э.Керн Деревья и кустарники Госиздет М. 1925.
36. <http://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/891928>
37. <http://www.dendroflora.nl/algemeen.htm>
38. <http://eprints.tversu.ru/2339/>
39. <http://www.dissercat.com/content/estestvennaya-dendroflora-kabardino-balkarii-i-ee-analiz>
40. <http://www.ecoetalon.ru/u-dendra.html>
41. <http://poroda-dereva.ru/stroenie/780-dendrologiya.html>
42. <http://www.derev-grad.ru/dendrologiya/dendrologiya.html>